

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 157 (1756), 2026-yil 5-avgust, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



DAVLAT XIZMATCHILARI MEHNATIGA HAQ TO‘LASH TIZIMI TAKOMILLASHTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 4-avgust kuni davlat fuqarolik xizmatchilarining oylik ish haqi tizimi va mehnatga haq to‘lash shartlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

So‘nggi yillarda davlat xizmatida kadrlarni tanlash, ishga joylash va rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi.

Davlat fuqarolik xizmatchilarining huquqlari, majburiyatlari va faoliyatining asosiy tamoyillarini belgilab bergan alohida qonun qabul qilindi. Davlat organlarida boshqaruv xodimlarining shtat birliklari 2016-yildagi 73 mingdan 54 mingga maqbullashtirildi.

Taqdimotda amaldagi mehnatga haq to‘lash tizimida saqlanib qolayotgan nomutanosibliklar tahlil qilindi.

Bugungi kunda davlat xizmatchilari ish haqi tarkibida lavozim maoshining ulushi 15 foizdan oshmaydi. Ish haqi fondining 70 foizgacha qismini xodimning aniq natijasiga bog‘lanmagan turli ustama, mukofot va rag‘batlantiruvchi to‘lovlar tashkil qiladi.

Natijada bir xil lavozimda va o‘xshash vazifalarni bajarayotgan xodimlarning ish haqi o‘rtasida katta farq yuzaga kelgan. Ayrim vazirlik va idoralarning hududiy bo‘linmalari xodimlari viloyat, tuman va shahar hokimliklaridagi xuddi shunday lavozim egalari bilan solishtirganda tenglik prinsiplariga amal qilinmayotgani qayd etildi.

Mehnatga haq to‘lash tizimini tartibga soluvchi yagona huquqiy hujjat mavjud emas. Aksariyat davlat organlarida qo‘llanilayotgan mehnatga haq to‘lash shartlari bo‘yicha 50 dan ortiq alohida normativ hujjat amal qilmoqda.

Shu bois, davlat fuqarolik xizmatchilari mehnatiga haq to‘lashning yagona, ochiq va natijaga asoslangan tizimini joriy etish taklif qilindi.

► Davomi 2-betda

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yilligiga



YANGI O‘ZBEKISTON: SHIDDATLI EVRILISH VA REAL NATIJALAR MANZILI

“Yangi O‘zbekiston” gazetasi ijodiy jamoasining yangi loyihasi davom etadi. Navbatdagi manzil vodiyning yana bir so‘lim go‘shasi – Namangan viloyati!

Yaxshi bilasiz, **“Yangi O‘zbekiston: shiddatli evrilish va real natijalar manzili!”** loyihasi orqali mamlakatimiz bo‘ylab amalga oshirilayotgan shiddatli o‘zgarishlarni xolis tahlil qilib, qisqa vaqt ichida yaratilayotgan ulkan tarixiy natijalar mohiyatini ochib berishni maqsad qilganmiz.

Loyihamiz doirasida dastlab Qoraqalpog‘iston, undan keyin esa Farg‘ona viloyatidagi yangilanishlar, keyingi o‘n yilda ushbu hududlarda kuzatilgan ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishlar haqida qator tahliliy maqolalar tayyorlanib, gazetamizning maxsus sonlarida chop etilgan edi.

“Yangi O‘zbekiston” gazetasi ijodiy jamoasi loyiha maqsadiga muvofiq, Namangan viloyatining olis qishloqlaridagi o‘zgarishlar, shaharlarning yangilangan qiyofasi bilan yaqindan tanishdi. Ziyolilar, yoshlar, faollar va oddiy insonlar bilan suhbatlashib, ularning dil so‘zlariga quloq tutdi. Shu asosda real hayotiy hikoyalardan olingan islohotlar ko‘lamini ochib berishga harakat qildik.

Tahririyat ijodiy jamoasining ishbilarnom, uddaburon va mehmondo‘st namanganliklar bilan uchrashuvlari yorqin taassurotlar hamda esda qolarli voqealarga boy kechdi. Avvalo, azaldan hunarmandchilik va ilm-ma‘rifat maskani bo‘lgan bu zamin vakillari bilan samimiy muloqot davomida katta hayotiy hikmatlarni uddik. Mamlakatimizdagi izchil islohotlarning ana shu mehnatkash va daryodil insonlar hayotidagi amaliy natijasini ko‘rib, ko‘nglimiz faxrga to‘ldi.

Ta’kidlash joizki, davlatimiz rahbarining siyosiy irodasi tufayli qisqa fursatda katta tarix yaratildi. Xususan, inson manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘yishga qaratilgan ko‘lamdor islohotlar ta’siri chekka qishloqlar, mahallalar hayotida ham o‘z aksini topmoqda. Namangan viloyati aholisi ham ushbu ijobiy o‘zgarishlar jarayonini bevosita o‘z kundalik turmushida his etib, bugunidan rozi holda ertangi kunga katta ishonch bilan qaramoqda.

Hududda amalga oshirilayotgan jadal yangilanishlar va aholining farovonligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘lamini xolis tahlil qilish maqsadida Siz, aziz mushariylarga ushbu sonda bir qator tahliliy maqolalarni havola etmoqdamiz.

O‘rganishlar davomida ayon bo‘ldiki, gazeta sahifalarida Namangandagi barcha ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar va erishilayotgan ko‘rsatkichlarni to‘liq qamrab olishning imkoniyati yo‘q. Shu sababli ijodiy jamoamiz asosiy e’tiborni hudud rivojini belgilab berayotgan eng muhim sohalar va ulardagi strategik natijalarni yoritishga qaratdi. Ushbu tayyorlangan tahliliy maqolalar to‘plami Namangan viloyatida kechayotgan o‘zgarishlarning real sur’ati va ko‘lamini aniq, atroflicha anglashga xizmat qiladi deb umid qilamiz.

Tahririyat

IQTISODIY O‘SISH, INNOVATSION TARAQQIYOT VA INTELLEKTUAL INSON KAPITALI: NAMANGAN KELAJAKNI QANDAY BARPO ETMOQDA?

Namangan viloyati hokimi Shavkat ABDURAZZOQOV bilan “Yangi O‘zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari bosh muharriri Salim DONIYOROV suhbat

Zamonaviy rivojlanish shiddati har bir hududdan eskicha yondashuvlardan voz kechish va yangicha iqtisodiy modelga o‘tishni talab etmoqda. Bir paytlar iqtisodiy qiyinchiliklar girdobida qolgan, davlat dotatsiyasi hisobidan kun ko‘rgan Namanganda bugun amalga oshirilayotgan islohotlar ko‘lami shu qadar kattaki, aholi hayotidagi aniq o‘zgarishlar, yangi ishlab chiqarish quvvatlari va yirik infratuzilma loyihalari kundan kunga yaxshilanib, kengayib, taraqqiyot etib bormoqda. Hududda sanoat va eksport hajmining keskin oshishi, to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimining kengayishi hamda aholining tadbirkorlik faolligi yuqori bosqichga ko‘tarilgan viloyatni nafaqat Farg‘ona vodiysi, balki butun mamlakat miqyosidagi yetakchi drayverlardan biriga aylantirmoqda.

Shu bilan birga, transport-logistika imkoniyatlarini kengaytirish, raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellekt ishlarni amalga oshirishdek aniq va maqsadli vazifalar yotibdi. Barcha jabhalarda yuksak salohiyati va beodoq imkoniyatlarini namoyish qilayotgan viloyatda kechayotgan ana shu islohotlarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, investitsiyaviy va innovatsion istiqbollari hamda aholi farovonligini ta’minlashga qaratilgan ustuvor rejalarini atroflicha va xolis tahlil qilish maqsadida “Yangi O‘zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari bosh muharriri Salim Doniyorov Namangan viloyati hokimi Shavkat Abdurazzoqov bilan suhbat uyushtirdi.

— **Shavkat Shokirjonovich, yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar Namangan viloyatida qanday**

o‘zgarishlarni yuzaga chiqardi? Viloyat rivojlanishida eng katta yutuq sifatida nimalarni qayd etgan bo‘lardingiz?

— Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar Namangan viloyati taraqqiyotida mutlaqo yangi bosqichni boshlab berdi. Eng muhimi, hududlarni rivojlantirishga oid yondashuv tubdan o‘zgardi — har bir tuman va shaharning iqtisodiy salohiyati, aholining ehtiyoji va tashabbuslari asosiy mezonga aylandi. Bu esa investitsiyalar jalb qilish, yangi ish o‘rinlari yaratish, muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yaxshilash hamda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashda aniq natijalar bermoqda. Agar men eng katta yutuqni qayd etadigan bo‘lsam, bu — Namanganda iqtisodiy faollik va odamlarning o‘z kuchi, tashabbusi bilan daromad topish imkoniyatlari kengayganidir. So‘nggi yillarda viloyatda minglab yangi korxonalar tashkil etildi, sanoat ishlab chiqarishi bir necha barobar o‘tdi, investitsiya muhiti sezilarli darajada yaxshilandi. Bugun Namangan nafaqat Farg‘ona vodiysi, balki respublikada sanoat, xizmat ko‘rsatish va tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha yetakchi hududlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Eng asosiysi, barcha islohotlarning markazida inson manfaati turibdi. Biz uchun har bir investitsiya loyihasi, har bir qurilish yoki ishlab chiqarish obyekti, avvalo, aholi farovonligi, bandligi va hayot sifati yaxshilanishiga xizmat qilishi kerak. Shu tamoyildan kelib chiqib, Namangan viloyatida boshlangan islohotlarni yanada yuqori bosqichga olib chiqish va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash bo‘yicha ishlarni izchil davom ettirmoqdamiz.

— **Namangan xalqaro aeroportining yangi terminali nafaqat viloyat, balki butun Farg‘ona vodiysi uchun strategik ahamiyatga ega. Ushbu loyiha hududning investitsiyaviy jozibadorligi, turizm va eksport salohiyatiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?**

— Namangan xalqaro aeroportining yangi terminali yangi O‘zbekistonning ochiq iqtisodiyot va hududlarni kompleks rivojlantirish siyosatida muhim strategik loyihalardan biri. Ushbu terminal Namangan viloyatining xalqaro transport va logistika imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi, Farg‘ona vodiysining tashqi dunyo bilan aloqalarini yanada mustahkamlaydi.

Qiymati 150 million dollarlik “Namangan xalqaro aeroporti negizida xalqaro terminal barpo etish” hamda qiymati 100 million dollarlik mazkur “Xalqaro aeroport negizida kargo logistika xizmat ko‘rsatish markazini tashkil etish” loyihalarida qurilish-obodonlashtirish ishlari jadal sur’atlarda olib borilmoqda.

Loyihani foydalanishga topshirish natijasida aeroport qiyofasi tubdan o‘zgarishi barobarida yo‘lovchi tashish quvvati 2,5 barobar oshadi. Shuningdek, xizmatlar sifati ham jahon standartlariga mos bo‘ladi. Kuniga 50 tonna yukni qayta ishlash imkoniyati yaratilib, ushbu majmua orqali 90 ta mamlakatga eksport qilinadi va vodiya davomida kargo tizimi yo‘lga qo‘yiladi. Eng avvalo, bu loyiha viloyatning investitsiyaviy jozibadorligini oshiradi. Chunki har qanday investor hududning transport infratuzilmasiga alohida e’tibor qaratadi. Zamonaviy aeroport xorijiy investorlar va biznes vakillarining hududga kelishi uchun qulay shart-sharoit yaratadi, yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, turizm sohasida yangi imkoniyatlar ochiladi. Namangan boy tarixiy merosi, go‘zal tabiati, ziyoratgohlari va o‘ziga xos madaniy an‘analari bilan katta turistik salohiyatga ega. Yangi terminal xalqaro aviaqatnovlar geografiasini kengaytirish orqali xorijlik sayyohlar oqimini ko‘paytirishga, ichki turizmni rivojlantirishga va xizmatlar sohasida yangi ish o‘rinlari yaratilishiga zamin bo‘ladi.

► Davomi 3-betda



Xushxabar



22 ta

spektral diapazon



300 km

tasvirlash qamrovi



5 metr

tasvir aniqligi

“SAMARQAND – 2028” SUN‘IY YO‘LDOSHI ORBITAGA CHIQRILMOQDA

Davlatimiz rahbari o‘tgan yili Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida kosmik faoliyatni mamlakat taraqqiyotining strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida qayd etar ekan, milliy sun‘iy yo‘ldoshlar guruhini yaratish va O‘zbekistonning birinchi fazogirini orbitaga chiqarish bo‘yicha ishlar boshlanganini ma’lum qilgan edi. Bugun ana shu xayrli maqsad yo‘lida ilk qadamlar qo‘yilmoqda. Xususan, Xitoy Xalq Respublikasining Haiyang sharqiy kosmodromidan STAR.VISION kompaniyasining “O‘zbekkosmos” agentligi bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan “Samarqand — 2028” Yerni masofadan zondlash sun‘iy yo‘ldoshi orbitaga chiqarilmoqda.

► Davomi 2-betda

DAVLAT XIZMATCHILARI MEHNATIGA HAQ TOʻLASH TIZIMI TAKOMILLASHTIRILADI

Boshlanishi 1-betda

Yangi tizim bilan 54 ming nafar davlat xizmatchisini qamrab olish koʻzda tutilgan. Davlat organlari milliy, respublika, hududiy hamda tuman va shahar darajalariga, xodimlar esa bajaradigan vazifalariga qarab maʼmuriy boshqaruv, asosiy va qoʻllab-quvvatlash guruhlarga ajratiladi.

Xalqaro tajriba asosida 11 ta razryad va 6 ta pogʻonadan iborat yangi ish haqi setkasini joriy etish taklif qilindi. Oʻndan ortiq ustama va mukofotlar oʻrniga uchta asosiy ragʻbatlantirish toʻlovi joriy etiladi.

Jumladan, malaka darajasi, xodimning funksional vazifalarni bajarishi, ijro va

mehnat intizomi, tashabbuskorligi asosida baholanadigan samaradorlik koʻrsatkichlari — KPI uchun ustama toʻlanadi.

Shuningdek, muhim va murakkab vazifalarni bajargan, innovatsion yondashuvlarni joriy etgan hamda yuqori natija koʻrsatgan xodimlarga hisobot davri yakunlari boʻyicha bonus toʻlovlari berish nazarda tutilmoqda.

Hududiy boshqarmalar xodimlarining ish haqi tegishli hokimliklardagi oʻxshash lavozimlar maoshidan yuqori boʻlmaydi. Tuman va shaharlarda ish haqi hamda shtat birliklarini belgilashda aholi soni va hududning oʻziga xos xususiyatlari inobatga olinadi.

Eng muhimi, har bir davlat xizmatchisi ish haqi qanday shakllanishi, qaysi natija uchun

ustama yoki bonus olishini oldindan biladi. Bu xodimlarning samaradorligi, tashabbuskorligi va masʼuliyatini oshirishga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari mehnatga haq toʻlash tizimida adolat va shaffoflikni taʼminlash, ish haqini xodimning malakasi, masʼuliyati hamda erishgan natijalari bilan bogʻlash muhimligini taʼkidladi.

Shuningdek, bonus toʻlovlari xodimning ilgʻor axborot texnologiyalarni, jumladan, sunʼiy intellekt, zamonaviy bilim va koʻnikmalarni oʻzlashtirgani, tajriba va malakasini oshirgani kabi aniq mezonlar asosida toʻlanishi belgilandi.

OʻZA

KADASTR AGENTLIGI FAOLIYATI YANGICHA YONDASHUVLAR ASOSIDA TASHKIL ETILADI

Boshlanishi 1-betda

Masalan, bitta hovlini aka-uka oʻrtasida boʻlish uchun oʻrtta, bitta merosni uch qismga ajratish uchun esa oltita ariza talab qilinadi. Bitta ariza tuman, viloyat va respublika darajasida 30-50 ta bosqichda koʻrib chiqilib, jarayon oʻrtacha 15-20 kunga choʻzilmogʻda.

Taqdimotda agentlikning boshqaruv tuzilmasi ham tanqidiy tahlil qilindi.

Hozirda tuman va viloyat darajasida Kadastr agentligi hamda Kadastr palatasining alohida hududiy boʻlinmalari mavjud boʻlib, tizim amalda ikkita rahbar tomonidan boshqarilmoqda.

Tizimdagi xodimlarning 56 foizini rahbar va nazoratchilar, 44 foizini esa bevosita ijrochilar tashkil etadi. Ishga qabul qilish jarayonlarining murakkabligi sababli 700 dan ortiq ish oʻrni vakant qolmoqda. Xodimlarning 40 foizi oʻz mutaxassisligi boʻyicha ishlamayapti.

Qolaversa, viloyat darajasidagi rahbarlarga tuman boʻlinmalari rahbarlariga nisbatan intizomiy chora koʻrish vakolati berilmagan. Natijada ijrochi xodimlarning ish yuklamasi

ortib, mehnatiga haq toʻlash darajasi pastligicha qolmoqda.

Shu bois, kadastr xizmatlarini bosqichma-bosqich quyi boʻgʻinga tushirish va hududiy boʻlinmalarning vakolatlarini kengaytirish taklif qilindi.

Respublika darajasida ishlayotgan xodimlarning kamida 30 foizini tumanlarga oʻtkazish, respublika, viloyat va tuman darajasidagi Kadastr palatasi va xizmat koʻrsatish tuzilmalarini birlashtirish nazarda tutilmoqda. Bu orqali hududiy boʻlinmalarning mustaqilligi va masʼuliyati oshiriladi, xizmatlar fuqarolarga yaqinlashtiriladi.

Tuzilmaviy oʻzgarishlar jarayonida aholi sarson boʻlmasligi uchun bir hafta muddatda “Kadastr maslahat burchagi” va “Tekzor kadastr” xizmatlarini yoʻlga qoʻyish vazifasi belgilandi.

Agentlik faoliyatini “bitta ariza — bitta toʻlov” tamoyili asosida tashkil etish boʻyicha takliflar ham koʻrib chiqildi.

Yangi tartibga koʻra, koʻchmas mulkka huquq paydo boʻlganida ariza avtomatik ravishda shakllantirilib, proaktiv xizmat koʻrsatiladi. Bu orqali bir yilda 1 million 200

ming nafar arizachining vaqti va mablagʻi tejaladi. Kadastrga oid barcha xizmatlarni bitta ariza asosida koʻrsatish yoʻlga qoʻyilib, yiliga 200 mingta ortiqcha ariza qisqartiriladi.

Koʻchmas mulkka boʻlgan huquqni roʻyxatdan oʻtkazish jarayoni toʻliq onlayn shaklga oʻtkaziladi. Natijada yiliga 500 mingta arizani amaldagai 10-15 kun oʻrniga bir necha soniyada roʻyxatdan oʻtkazish imkoniyati yaratiladi.

Jumladan, noqonuniy qurilish ixtiyoriy ravishda bartaraf etilganda javobgarlikni yengillashtirish taklif qilindi. Shuningdek, koʻchmas mulk huquqini roʻyxatdan oʻtkazish uchun belgilangan muddatda ariza berilmagan holatda birinchi marta jarima oʻrniga ogohlantirish berish nazarda tutilmoqda.

Mutasaddirlarga xizmatlarni soddalashtirish, ortiqcha bosqich va toʻlovlarni qisqartirish, qaror qabul qilish vakolatlarini quyi boʻgʻinga tushirish hamda soha xodimlarining mehnat sharoitlarini yaxshilash yuzasidan tegishli topshiriqlar berildi.

OʻZA

MAHALLALARDA OBODLIK MADANIYATI VA NAFASI




Hududlar hayoti

Mamlakatimizda mahallalar qiyofasini tubdan oʻzgartirish, aholi uchun yanada qulay va fayzli muhit yaratish, har bir hududga obodlik nafasini olib kirish davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan. Shu maqsadda “mahalla yetiligi” faoliyatini mutlaqo yangicha yondashuvlar asosida tashkil etish, joylarda obodlikni taʼminlash, fuqarolarning daxldorlik hissini kuchaytirish va eng yaxshi tajribalarni ommalashtirishga qaratilgan qator muhim vazifalar belgilab olingan.

Xususan, “Eng orasta xonadon”, “Eng fayzli hovli”, “Eng obod koʻcha” hamda “Eng namunali mahalla” kabi nominatsiyalar joriy etilib, gʻoliblar uchun mol-mulk va yer soligʻi boʻyicha imtiyozlar berish, namunaviy faoliyat yuritgan “mahalla yetiligi”ni munosib taqdirlash belgilab qoʻyilgan.

Shuningdek, “Mahallada obodlik va mehr-saxovat oyligi” doirasida Namangan viloyatining barcha shahar va tumanlarida keng qamrovli bunyodkorlik ishlari bajarildi. Mazkur tashabbus hududlarni yanada obod va koʻrkam qiyofaga keltirish barobarida aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish, hamjihatlik muhitini mustahkamlash hamda mustaqilligimizning 35 yilligini munosib kutib olishga qaratilgan muhim amaliy harakatlarga aylandi.

Ayniqsa, temir yoʻl atrofini obodonlashtirishga alohida eʼtibor qaratildi.



Iroda QOʻCHQOROVA,
Namangan viloyati hokimi
maslahatchisi

Jumladan, Namangan viloyatining turli mahallalari hududidan oʻtuvchi temir yoʻl atrofida keng koʻlamli ishlar bajarildi.



Xushxabar

“SAMARQAND – 2028” SUNʼIY YOʻLDOSHI ORBITAGA CHIQRILMOQDA

Boshlanishi 1-betda

“Oʻzbekkosmos” agentligi muhandislari tomonidan ishlab chiqilgan sunʼiy intellekt moduli ushbu sunʼiy yoʻldosh tarkibiga integratsiya qilingan boʻlib, uning uchirilishi mamlakatimiz tarixidagi eng yirik xalqaro kosmik loyiha boʻlib, soha rivojida yangi bosqichni boshlab beradi. Mazkur texnologiya sunʼiy yoʻldosh tomonidan olingan maʼlumotlarni bevosita orbitaning oʻzida qayta ishlashga xizmat qiladi. Natijada uzatiladigan maʼlumotlar hajmi sezilarli darajada qisqaradi, maʼlumotlarni olish tezlashadi hamda keyingi tahlil jarayonining samaradorligi yanada oshadi.

“Samarqand — 2028” missiyasi qishloq xoʻjaligi, ekologiya, tabiiy resurslarni monitoring qilish, suv resurslarini boshqarish, favqulodda vaziyatlarning oldini olish, shaharsozlik hamda iqtisodiyotning boshqa strategik yoʻnalishlarida kosmik texnologiyalarni qoʻllash uchun yangi imkoniyatlarni yaratadi. Shu bilan birga, loyiha kosmik muhandislik, sunʼiy intellekt va sunʼiy yoʻldosh maʼlumotlarini qayta ishlash sohalarida mamlakat salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Missiyaga alohida ramziy mazmun bagʻishlayotgan jihatlardan biri sunʼiy yoʻldoshning “Samarqand — 2028” deb nomlanishidir. Ushbu nom bejiz tanlanmagan. 2025-yilda Sidney shahrida boʻlib oʻtgan navbatdagi xalqaro astronomika kongressi davomida Samarqand shahri bir ovozdan 2028-yilda

boʻlib oʻtadigan 79-Xalqaro astronomika kongressi mezboni etib saylangan edi. Bundan tashqari, mazkur nom chuqur tarixiy maʼnoga ham ega. Samarqand asrlar davomida dunyoning yirik ilm-fan, astronomiya va maʼrifat markazlaridan biri boʻlib kelgan. Aynan shu zaminda XV asrda buyuk alloma va davlat arbobi Mirzo Ulugʻbek oʻz davrining eng mukammal astronomik rasadxonalaridan birini bunyod etgan. Bugun esa Samarqand yana bir bor jahon kosmik tarixining muhim qismiga aylanmoqda. Bir soʻz bilan aytganda, bu nom mamlakatimizning boy ilmiy merosi bilan zamonaviy kosmik texnologiyalarni bogʻlovchi ramzdir.

Shubhasiz, mazkur yutuqlarning barchasi yurtimizda hukm surayotgan ochiqlik siyosati, izchil islohotlar hamda ilm-fan, innovatsiyalar va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan strategik siyosat samarasidir. Aynan shunday yondashuv Oʻzbekiston kosmik tarmogʻini sifat jihatidan mutlaqo yangi bosqichga olib chiqdi hamda jahon miqyosidagi loyihalarni amalga oshirish uchun mustahkam zamin yaratdi. Eng muhimi, bu kabi yirik loyihalaridagi ishtirok “sirli osmon toqi” sari qoʻyilgan navbatdagi qadam oʻlaroq, mamlakatimizning zamonaviy dunyoda ortib borayotgan oʻrni va nufuzining yaqqol namoyoni boʻlmoqda.

Risolat MADIYEVA,
“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri

AZM-U SHIJOATIMIZ, SHASHTIMIZ SOʻNMASDIR

Oʻzbekistonda eng tez taraqqiy etayotgan, rivojlanish surʼatidagi shiddat boshqalarga nisbatan kuchli kechayotgan viloyat, shubhasiz, Namangandir. “Namanganlik boʻlganingiz uchun sizga shunday tuyulayotgandir, ehtimol, avval boshqa viloyatlarga ham qarab, ijtimoiy-iqtisodiy faktlarni solishtirib, keyin gapiring”, deyishga shoshilmang.



Mulohaza

Toʻgʻri, keyingi oʻn yillikdagi tarixiy yangilanish jarayoni, yangi Oʻzbekistonni barpo etish yoʻlidagi islohotlar hech bir soha yoki tarmoq, hududlarni chetlab oʻtgan yoki inson qadrini ulugʻlashga yoʻgʻrilgan islohotlar samarasida shaharlardan tortib, eng chekka qishloqlargacha yangi hayot eng chekka qishloqlargacha yangi hayot nafasini kirib borayotgani, odamlarning turmush tutumlari, tafakkuri oʻzgarayotgani, farovonligi oshayotgani ayni haqiqat.

Nima uchun unda aynan Namangan? Chunki bu hudud azaldan mehnatkash, tadbirkor va yaratuvchan insonlari bilan tanilgan holda yaqin-yaqingacha agrar tarmoqga ixtisoslashgan, ulkan imkoniyatlarga ega boʻlishiga qaramay, oʻzini oʻzi toʻliq taʼminlay olmaydigan, dotatsiyada

oʻtiradigan eng qoloq viloyatlardan biri edi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda mudroqlikdan uygʻonish, vaziyatni oʻnglash, jamiyatni harakatga keltirish yoʻlida boshlangan yangilanishlar epkini bu zamin uchun yangi imkoniyatlar, katta bunyodkorliklar va iqtisodiy yuksalishni olib keldi. Islohotlar natijasida viloyatning sanoat, investitsiya, tadbirkorlik, qishloq xoʻjaligi va ijtimoiy sohalar rivojida mutlaqo yangi bosqich boshlandi.

Bugun Namangan ishblarmonlik muhiti, eksport salohiyati va xususiy tashabbuslar jadal rivojlanayotgan viloyat sifatida eʼtirof etilmoqda. Ilgari infratuzilma bilan bogʻliq koʻplab masalalar bor edi. Ular bosqichma-bosqich bartaraf etildi. Yangi sanoat zonallari



Ikromxon NAJMIDDINOV,
“Nuroni” jamgʻarmasi Namangan
viloyati boʻlimi raisi,
Oliy Majlis Senati aʼzosi

tashkil qilindi, yuzlab investitsiya loyihalari hayotga tatbiq etildi, ming-minglab yangi ish oʻrinlari yaratildi.

Namanganliklar uchqur oti jilovini tutgan chopagʻonga oʻxshaydi. Yoʻlini koʻrsatsangiz, marrasini aytmasingizdan, oʻsha manzilda boʻladi. Buni har bir namanganlik hayotidagi farovonlikda, viloyat hayotiga doir iqtisodiy raqamlarda koʻrish, kuzatish mumkin, albatta.

Tadbirkorlikdan qiyos. 2025-yil yakunlari boʻyicha viloyat yalpi hududiy mahsuloti 8,2 foiz oʻsib, 85,4 trillion soʻmdan oshgan boʻlsa, unda kichik biznesning ulushi 73,6 foizni tashkil etdi.

Tasavvur qilyapsizmi?! Oʻn yil oldin, asosan, qishloq xoʻjaligiga ixtisoslashgani tufayli deyarli hech vaqosi boʻlmagan, respublikadan beriladigan yordamni kutadigan viloyatda tadbirkorlik qanday shiddat bilan rivojlandi!

Bundan besh yil oldin — 2021-yilda viloyat yalpi hududiy mahsuloti hajmi 42 trillion soʻm edi. Shu qisqa vaqt oralgʻida hudud iqtisodiyoti ikki barobardan ziyod kengaydi. Bunda, albatta, aholini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish, bu yoʻlda taqdim etilayotgan imtiyozlar, yaratib berilayotgan sharoitlar, umuman, kichik biznesning ahamiyati beqiyos. Masalan, oʻtgan yili viloyatda agrar sektor 4,4 foiz oʻsgan boʻlsa,

bu koʻrsatkich xizmatlar sohasida 15,5 foizni, qurilishda 10 foizdan ortiqni tashkil etgani ham fikrimiz tasdiqʻidir.

Asosiysi, islohotlar natijasi, avvalo, namanganliklar hayotida namoyon boʻlmoqda. Barcha soha va yoʻnalishlardagi bunyodkorlik ishlari hisobot uchun emas, xalqni rozi qilish maqsadida bajarilyapti. Buni yuqorida aytganimiz — tadbirkorlik rivoji misolida yaqqol koʻrish mumkin. Xususan, soha rivoji nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy funksiyani ham bajarmoqda. U aholi bandligi va daromadlarini taʼminlash, savdo, xizmatlar, ishlab chiqarish va eksportni rivojlantirishda muhim oʻrin tutmoqda.

2025-yil yakunlariga koʻra, viloyatda 34,8 mingta kichik korxona va mikrofirma faoliyat koʻrsatgan boʻlsa, shundan fermer va dehqon xoʻjaliklarini hisobga olmaganda, 5,9 mingtasi yangidan tashkil etilgan. Viloyatdagi band aholining qariyb 82 foizi ushbu sektor hissasiga toʻgʻri keladi.

Ha, Namangan viloyati keyingi yillarda jadal rivojlanmoqda. Aholining turmush sharoitini yanada yaxshilash maqsadida yangidan yangi ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatish obyektlari, kichik sanoat zonallari, GES va suv inshootlari, ravon yoʻllar, “Yangi Oʻzbekiston” massivlari bunyod etilmogʻda.

Viloyatimizning keyingi yillardagi misli koʻrilmagan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidan barcha namanganliklar kabi kecha avlod vakillari ham mamnun. Ular mazkur jarayonning faol ishtirokchisi ekanidan kuch olmoqda.

Kezi kelganida aytish joiz, viloyatimizda 336 mingdan ziyod pensiya va nafaqa oluvchi, yoshga doir 273 ming pensioner, oʻzgarlar parvarishiga muhtoj 1901 kessa va 235 nafar urush orti mehnat faxriysi bor, ular toʻliq ijtimoiy himoyaga olingan.

Yoshlarni barkamol avlod etib tarbiyalash, mahallalarda ijtimoiy-maʼnaviy muhit barqarorligini taʼminlash, hududlarni obod qilishda nuroniylarimizning boy tajribasidan unumli foydalanyapmiz. Bunda mintazam oʻtkazib kelinayotgan “Uch avlod uchrashuvi” tadbirlari, “Bir nuroniy — oʻn yoshga masʼul” va “Nuroni — har bir oilaga masʼul” loyihalari qoʻl kelyapti.

Bugun zamonimiz bir oz notinch, geosiyosiy va geoiqtisodiy nuqtayi nazardan olganda, vaziyat murakkab. Shunday bir sharoitda yangi Oʻzbekiston katta maqsadlarni koʻzlab, manzil sari dadil, muvozanatini yoʻqotmay, shaxt bilan bormoqda. Koʻzlangan maqsadlarga erishish barchamizning birgalikdagi saʼy-harakatlarimiz, hamjihatligimiz, fidoyiligimiz, azm-u shijoatimizga bogʻliq.

“Oylik davomida aholi bilan oʻtkazilgan uchrashuvlar va targʻibot ishlari ham diqqatga sazovor. Fuqarolarga tozalikka amal qilish, chiqindilarni belgilangan joylarga tashlash, yashil hududlarni asrash va mahalla obodligiga daxldorlik bilan yondashish boʻyicha tushunchalar berildi. Bu esa, oʻz navbatida, ekologik madaniyatning yanada yuksalishiga xizmat qildi.

Eʼtiborlisi, ushbu tadbirlar faqat bir martalik hashar emas, balki aholi oʻrtasida obodlik madaniyatini shakllantirishga qaratilgan muhim ijtimoiy harakatlarga aylandi. Odamlarning bir maqsad atrofida birlashib mehnat qilishi oʻzaro hamjihatlik va mehr-oqibat muhitini yanada mustahkamladi. Zotan, obod mahalla farovon hayot garovidir. Namangan viloyatida ham bunday ishlarning qamrovi keng, salmogʻi katta. Muhimi, hudud ahli bahamjihat harakat qilib, obodlikni oʻz xonadonidan va mahallasidan boshlamoqda.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yilligiga

IQTISODIY O‘SISH, INNOVATSION TARAQQIYOT
VA INTELLEKTUAL INSON KAPITALI:

NAMANGAN KELAJAKNI QANDAY BARPO ETMOQDA?

Boshlanishi 1-betda

Uchinchidan, eksport imkoniyatlari ham yangi bosqichga chiqadi. Namanganda to‘qimachilik, tayyor kiyim-kechak, meva-sabzavot va boshqa raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqariladi. Zamonaviy aeroport tezkor logistika imkoniyatlarini kengaytirib, eksport qiluvchi korxonalar uchun tashqi bozorlarga chiqishni yanada osonlashtiradi. Bu esa mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish va eksport hajmini ko‘paytirishda qo‘l keladi.

— **Namanganda ilm-fan, startaplar va innovatsiyalarni rivojlantirish bo‘yicha qanday yangi tashabbuslar rejalashtirilgan?**

— Bugungi kunda axborot texnologiyalari, xususan, sun‘iy intellekt hududlar taraqqiyotini belgilab beruvchi eng muhim omillardan biriga aylandi. Biz uchun bu soha viloyat iqtisodiyotini yangi bosqichga olib chiquvchi, yoshlarimiz uchun yuqori daromadli ish o‘rinlari yaratuvchi va boshqaruv samaradorligini oshiruvchi strategik ustuvor yo‘nalishdir.

Ushbu soha mamlakatimizda jadal sur‘atlar bilan rivojlanmoqda va davlat siyosatining markaziy masalalaridan biriga aylangan. Buning yaqqol isboti — Prezidentimizning joriy yilning 23-iyul kuni viloyatimizga tashrifi chog‘ida Namangan davlat texnika universitetida tashkil etilgan Sun‘iy intellekt laboratoriyasi hamda “Namangan aqlli shahar vaziyatlar markazi” faoliyati bilan yaqindan tanishganidir. Mazkur majmua Namangan viloyati hokimligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi hamda Asakabank hamkorligida barpo etildi.

Alohida ta’kidlash joizki, laboratoriya eng so‘nggi rumumdagi sun‘iy intellekt texnologiyalari — yuqori quvvatli serverlar va zamonaviy hisoblash mashinalari bilan to‘liq jihozlangan. Bu yerda katta ma’lumotlar tahlili (Big Data), raqamli egizak (Digital Twin), geoaxborot tizimlari (GIS) va intellektual qaror qabul qilish vositalaridan keng foydalaniladi. Markaz sun‘iy intellekt va robototexnika, energetika, transport va logistika, arxitektura va qurilish, raqamli iqtisodiyot, qishloq xo‘jaligi va ekologiya kabi 10 dan ortiq yo‘nalishni yagona ilmiy-amaliy muhitda birlashtirdi. Biz ushbu laboratoriyaga viloyatdagi barcha innovatsion loyihalar uchun boshlang‘ich nuqta — ta’lim, ilmiy tadqiqot, texnologiyalar transferi va startaplarni rivojlantirishni o‘zida birlashtirgan zamonaviy ekotizim sifatida qaraymiz.

Tashrif davomida davlatimiz rahbariga laboratoriya negizida ishlab chiqilayotgan bir qator loyihalar taqdim etildi va ular Prezidentimiz tomonidan ma’qullanib, e’tirofga sazovor bo‘ldi. Xususan, xotin-qizlarimizni yetakchilik ko‘nikmalariga o‘qitishga qaratilgan “Digital Imkon” ijtimoiy loyihasi, sun‘iy intellekt va sun‘iy yo‘ldosh tasvirlari asosida qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan “AgroAI” loyihasi hamda milliy va madaniy merosimizni asrab-avaylashga xizmat qiluvchi GameDev yo‘nalishidagi loyihalar shular jumlasidandir. Mammuniyat bilan aytishim mumkinki, ushbu loyihalarning barchasi bo‘yicha amaliy ishlar allaqachon boshlab yuborilgan.

Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 11-fevraldagi “Startaplarni qo‘llab-quvvatlashning kompleks ekotizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ahamiyatini alohida ta’kidlamoqchiman. Mazkur qarorga muvofiq har yili “Eng innovatsion g‘oya” respublika tanlovi o‘tkazilib, g‘oliblarga 100 million so‘m miqdordagi grant ajratiladi, “Oliyog‘lar — startaplar generatori” dasturi doirasida har bir loyihaga 20 ming dollargacha investitsiya kiritish imkoniyati yaratiladi, “Raqamli startaplar” dasturi ishtirokchilariga esa AT-park rezidenti maqomi beriladi. Aynan sun‘iy intellekt laboratoriyasi ushbu qaror ijrosida viloyatimizdagi startaplar uchun boshlang‘ich maydoncha vazifasini bajaradi. Bu yerda iqtidorli yoshlarimiz va talabalarimiz o‘z g‘oyalarini professor-o‘qituvchilar va tajribali mutaxassislar ko‘magida amaliy loyihalarga aylantirish, zamonaviy uskunalarda sinovdan o‘tkazish hamda investorlarga taqdim etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ishonchim komilki, yaratilayotgan ushbu sharoitlar tufayli Namangan viloyati yaqin kelajakda mamlakatimizning sun‘iy intellekt va innovatsiyalar sohasidagi yetakchi hududlaridan biriga aylanadi.

— **2030-yilga nazar tashlaydigan bo‘lsak, siz viloyatni qaysi ko‘rsatkichlar bo‘yicha mamlakatning yetakchi hududlaridan biri sifatida ko‘rishni maqsad qilgansiz? Bu maqsadga erishish uchun eng asosiy omil nima?**

— Biz 2030-yilgacha bo‘lgan taraqqiyot strategiyamizda Namangan viloyatini iqtisodiy qudrati, investitsiyaviy jozibadorligi,

sanoatlashuv darajasi, eksport salohiyati, zamonaviy infratuzilmasi va aholi turmush sifati bo‘yicha mamlakatning yetakchi hududlari qatorida ko‘rishni maqsad qilganmiz. Buning uchun oldimizga aniq vazifalar qo‘yilgan. Avvalo, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan sanoat tarmoqlarini kengaytirish, mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini yanada oshirishga alohida e’tibor qaratamiz. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, logistika imkoniyatlarini kengaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash ham ustuvor vazifalarimizdan hisoblanadi.

Biroq mening nazarimda, eng asosiy ko‘rsatkich iqtisodiy raqamlar emas, balki inson kapitalidir. Agar aholimiz bilimli, zamonaviy kasb-hunarga ega, tadbirkorlik ruhi kuchli va o‘z kelajagiga ishonchi mustahkam bo‘lsa, boshqa barcha natijalarga ham albatta erishamiz. Shu bois, ta’lim sifati, sog‘liqni saqlash, yoshlar bandligi, xotin-qizlarning iqtisodiy faolligi va aholining daromadlarini oshirishga qaratilgan ishlar bizning doimiy e’tiborimiz markazida turadi.

Eng asosiy omil esa Prezidentimiz rahbarligida olib borilayotgan islohotlarni hududlarda samarali amalga oshirish, davlat idoralari, tadbirkorlar va aholining o‘zaro hamjihatligi hamda mas’uliyatidir. Chunki taraqqiyot jamiyatning barcha qatlamlari bir maqsad yo‘lida harakat qilgandagina barqaror bo‘ladi.

Ishonamanki, Namanganning mehnatkash va tashabbuskor xalqi, boy iqtisodiy salohiyati hamda keng ko‘lamli islohotlar natijasida 2030-yilga borib viloyatimiz nafaqat mamlakatimizda, balki Markaziy Osiyoda ham investitsiya, sanoat, eksport va innovatsion rivojlanish bo‘yicha raqobatbardosh hududlardan biriga aylanadi. Bu bizning eng katta maqsadimiz va shu yo‘lda barcha imkoniyatlarni safarbar etamiz.

— **Bugun hududlar o‘rtasida investitsiya uchun raqobat kuchaymoqda. Investorlar aynan Namanganni tanlashi uchun qanday sharoitlar yaratilmoqda?**

— Bugungi kunda investitsiya uchun raqobat juda kuchli. Endi investorni faqat imtiyozlar bilan emas, balki ishonchli muhit, zamonaviy infratuzilma, tezkor boshqaruv va kafolatlangan hamkorlik bilan jalb qilish mumkin. Shu nuqtayi nazardan, Namanganda investor uchun eng



— Turkiya va Ozarbayjondan qiymati 1,5 milliard dollarlik 21 ta loyiha doirasida 702 million dollar;

— Rossiya Federatsiyasidan qiymati 916 million dollarlik 23 ta loyiha doirasida 405 million dollar;

— Yaponiyadan qiymati 640 million dollarlik 5 ta loyiha doirasida 327 million dollar;

— Avstriyadan qiymati 96 million dollarlik 3 ta loyiha doirasida 35 million dollar o‘zlashtiriladi.

Avvalo, har bir investitsiya loyihasi bilan manzilli ishlash tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Investorga yer ajratish, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulash, ruxsatnomalarni rasmiylashtirish va boshqa tashkiliy masalalarda davlat idoralari tomonidan kompleks ko‘mak ko‘rsatilmoqda. Bizning yondashuvimiz oddiy: investor vaqtni hujjatbozlikka emas, biznesini rivojlantirishga sarflashi kerak.

Ikkinchidan, Namanganning o‘ziga xos raqobat ustunliklari mavjud. Bu, eng avvalo, mehnatsevar va malakali kadrlar, qulay geografik joylashuv, rivojlanayotgan transport-logistika infratuzilmasi, erkin iqtisodiy va sanoat zonalar, shuningdek, katta ichki va

— **Keyingi yillarda sanoat tez rivojlanmoqda. Ammo bu ekologik barqarorlik bilan uyg‘un bo‘lishi ham muhim. Viloyatda “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini joriy etish bo‘yicha qanday ishlar qilyapti?**

— Bugungi kunda iqtisodiy o‘shish va ekologik barqarorlik bir-birini to‘ldiruvchi muhim omillar hisoblanadi. Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan “yashil taraqqiyot” siyosati doirasida Namangan viloyatida ham “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini hayotga keng tatbiq etish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Avvalo, yangi sanoat loyihalarini amalga tatbiq etishda ekologik talablarga qat’iy rioya qilish asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Zamonaviy, energiya tejovchi va ekologik xavfsiz texnologiyalarni joriy etayotgan korxonalarga ustuvorlik berilyapti. Bu esa tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitga ta’simi kamaytirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ko‘lami ham kengaymoqda. Quyosh energetikasi, energiyatejamkor uskunalaridan foydalanish, davlat muassasalari va ishlab chiqarish obyektlarida energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha aniq dasturlar amalga oshirilmoqda.

Ekologik barqarorlikni ta’minlashda ko‘kalamzorlashtirish ishlariga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida viloyatimizda millionlab daraxt va butalar ekilib, yangi yashil hududlar tashkil etilyapti. Bu nafaqat ekologik muhitni yaxshilash, balki iqlim o‘zgarishi ta’sirini yumshatish va aholi uchun sog‘lom yashash muhitini yaratishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, chiqindilarni saralash va qayta ishlash, suv resurslaridan samarali foydalanish, qishloq xo‘jaligida suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish kabi yo‘nalishlar ham doimiy e’tiborimiz markazida turibdi. Iqtisodiy taraqqiyotning haqiqiy samarasi faqat ishlab chiqarish hajmi bilan emas, balki inson salomatligi, toza atrof-muhit va kelajak avlodlar uchun saqlab qolindigan tabiiy boyliklar bilan o‘lchanadi. Shu bois, Namanganda har bir yangi investitsiya va har bir yangi sanoat loyihasi iqtisodiy manfaat bilan bir qatorda ekologik mas’uliyat tamoyili asosida amalga oshirilishga qat’iy e’tibor qaratamiz.

— **Siz, hokim sifatida qaysi sohada qarorlar qabul qilishda qiyinalasiz? Shunday vaziyatlarda qanday tamoyilga tayanasiz?**

— Hokimlik faoliyatida oson qarorning o‘zi bo‘lmaydi. Chunki har bir qaror minglab insonlarning hayoti, turmush sifati va kelajagiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun eng qiyin qarorlar, odatda, aholi manfaat bilan iqtisodiy ehtiyojlar o‘rtasida muvozanatni ta’minlash talab etiladigan masalalarda qabul qilinadi.

Masalan, yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish, shaharsozlik va infratuzilmani rivojlantirish, yer resurslaridan oqilona foydalanish yoki byudjet mablag‘larini ustuvor yo‘nalishlarga taqsimlash kabi qarorlar chuqur tahlil va katta mas’uliyatni talab qiladi. Bu jarayonda bir tomoningman manfaatini emas, balki butun jamiyat manfaatini hisobga olish muhim.

Men uchun qaror qabul qilishda eng asosiy tamoyil — qonuniylilik, adolat va inson manfaatidir. Prezidentimiz tomonidan ilgari

surilgan “Inson qadri uchun” degan ezgu g‘oya nafaqat davlat siyosatining, balki har bir rahbarning kundalik faoliyati uchun ham bosh mezon bo‘lishi kerak. Agar qabul qilinayotgan qaror odamlarning hayot sifatini yaxshilashga, yangi imkoniyatlar yaratishga va hududning barqaror rivojlanishiga xizmat qilsa, demak, bu to‘g‘ri qaror hisoblanadi.

Shu bilan birga, qarorlar yakka tartibda emas, balki mutaxassislar xulosasi, jamoatchilik fikri, tadbirkorlar va fuqarolarning takliflari asosida shakllantirilishiga alohida ahamiyat beramiz. Bugungi zamon rahbardan nafaqat talabchanlik, balki ochiq mulohat, xalqni eshitish va asosli qaror qabul qilish madaniyatini ham talab etadi.

Men doimo bir fikrga amal qilaman: rahbarning eng katta mezon — xalq ishonchi. Ana shu ishonchni oqlash, har bir qarorda adolat va mas’uliyatni ustuvor qo‘yish men uchun eng muhim vazifadur. Zero, bugun qabul qilyotgan qarorlarimiz faqat bugungi kun emas, balki Namanganning ertangi taraqqiyotini ham belgilab beradi.

Eksklyuziv savollar

— **Agar bugun Namangan yoshlariga bitta asosiy maslahat berish imkoniyati bo‘lsa, ularga nima degan bo‘lardingiz?**

— Bilaman, juda ko‘p takrorlanadi, lekin bu haqiqat: o‘n yil oldin bugungi yoshlar uchun yaratilgan imkoniyatlarimiz yarmi ham yo‘q edi. Shu bois, ularga havas qilaman, javlon urib ishlash, o‘qish uchun hamma sharoit bor. Nima derdim, o‘zingizga ishonang, bilim olishdan va yangilik yaratishdan hech qachon to‘xtamang. Katta orzu qiling, katta maqsadlar qo‘ying va ularga erishish uchun tinmay mehnat qiling. Chunki yangi O‘zbekistonning ertangi kuni, Namanganning kelajagi aynan sizlarning bilimingiz, g‘ayratingiz va fidoyiligingizga bog‘liq.

Bugungi dunyoda eng katta boylik bu — bilim, kasb-hunar va zamonaviy ko‘nikmalar. Tabiiy resurslar cheklangan bo‘lishi mumkin, ammo insonning bilimi, tafakkuri va salohiyatining chegarasi yo‘q. Shuning uchun har bir yosh chekkalarini o‘rganishga, raqamli texnologiyalarni egallashga, zamonaviy kasb-hunar sohibi bo‘lishga va doimiy o‘z ustida ishlashga intilishi kerak.

Men Namangan yoshlarida katta salohiyatni ko‘raman. Ular tashabbuskor, mehnatsevar va o‘z oldiga katta maqsadlar qo‘ya oladi. Bugun davlatimiz tomonidan ta’lim, tadbirkorlik, innovatsiya va yoshlar bandligini qo‘llab-quvvatlash uchun yaratilayotgan imkoniyatlardan oqilona foydalanish har bir yoshning eng muhim vazifasidir.

Yana bir muhim jihat — Vatanga muhabbat. Vatanni sevhif faqat ohorli jumlar bilan emas, balki halol mehnat, yuksak mas’uliyat va o‘z sohasining yetuk mutaxassisi bo‘lish orqali namoyon bo‘ladi. Kim qaysi sodda faoliyat yuritmasin, agar u o‘z ishini siddiqildan bajarsa, yurtimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan bo‘ladi.

— **Viloyatdagi qaysi masala sizni eng ko‘p xavotirga soladi?**

— Har bir rahbar uchun eng katta mas’uliyat bu — odamlarning dardi va muammosini his qilish, ularni o‘z vaqtda hal etish. Shu mas’uliyat

meni eng ko‘p o‘ylantiradigan va doimiy e’tiborimda bo‘lgan masala, bu aholi, ayniqsa, yoshlar uchun munosib ish o‘rinlari yaratish, ularning daromadlarini oshirish va farovon hayot sharoitlarini ta’minlashdir.

Namangan aholisi mehnatsevarligi, tadbirkorligi va yaratuvchanligi bilan ajralib turadi. Bizda katta inson kapitali va ulkan salohiyat bor. Endigi vazifa — ana shu salohiyatni to‘liq ishga solish, har bir oilaga barqaror daromad manbasini yaratish uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochishdan iborat.

Shu bilan birga, jadal rivojlanish jarayonida sifatli ta’lim, zamonaviy tibbiy xizmatlar, ichimlik suv, yo‘l va kommunal infratuzilma kabi aholi kundalik hayotiga bevosita ta’sir qiladigan masalalar ham doimiy nazoratimizda. Chunki iqtisodiy o‘shishning asosiy maqsadi — statistikaning emas, avvalo, insonlar hayotini yaxshilashdir.

Albatta, muammolar yo‘q emas. Lekin eng muhimi, ularni ochiq tan olish, xalq bilan birga yechim izlash va natija uchun mas’uliyatni zimmasizga yuklashdir. Biz har bir masalani “odamlar bugun qanday yashayapti, ertaga qanday yashashi kerak?” degan savol asosida baholaymiz. Chunki hokimlik faoliyatining bosh mezon — bu aholining ishonchi va roziligidir.

— **Hokim sifatida hali yechimi topilmagan qaysi muammoni o‘zingiz uchun eng katta vazifa deb bilasiz?**

— Har bir hududning rivojlanish jarayonida yechimini kutayotgan masalalar bo‘ladi. Rahbar uchun eng muhimi muammoni to‘g‘ri belgilash, sabablarni chuqur o‘rganish va bosqichma-bosqich hal etish. Men o‘zim uchun eng katta vazifalardan biri sifatida aholiga munosib daromad manbalari yaratish, mehnat bozori talablariga mos yangi ish o‘rinlarini ko‘paytirish va insonlarning hayot sifatini yanada yaxshilash masalasini belgilagan bo‘lar edim. Chunki har qanday islohotning eng katta samarasi bu — oiladagi farovonlik, insonning o‘z mehnati bilan munosib hayot kechira olishida namoyon bo‘ladi.

Shahar va qishloqlarimizda infratuzilmani yanada yaxshilash, aholiga zarur kommunal xizmatlar ko‘rsatish, ta’lim va tibbiyot sohasidagi sifat ko‘rsatkichlarini oshirish ham doimiy e’tiborimizda. Chunki hudud taraqqiyoti faqat iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan emas, balki insonning kundalik hayotidagi o‘zgarishlar bilan baholanadi.

Bu vazifalarni amalga oshirishda biz xalq bilan ochiq mulohatga, jamoatchilik fikriga va aniq tahlillarga tayanamiz. Har bir tuman va mahalladagi muammoning aniq manzili, mas’uliyati va yechimi bo‘lishi kerak degan tamoyil asosida ishlaymiz. Namanganning eng katta boyligi — uning odamlari. Shuning uchun barcha sa’y-harakatlarimizni inson qadri va xalq farovonligiga qaratib davom ettiramiz.

— **Prezidentimiz tashrifidan keyin shaxsan o‘z ish uslubingizda nimalarni o‘zgartirdingiz?**

— Prezidentimizning Namangan viloyatiga tashrifi davomida bildirilgan fikrlar, berilgan topshiriqlar va belgilangan ustuvor yo‘nalishlar biz uchun faoliyatimizni yanada takomillashtirishga katta turki bo‘ldi. Shaxsan men o‘z ish uslubimda, avvalo, masalalarga yanada chuqurroq tahlil va natijadorlik nuqtayi nazaridan yondashishni kuchaytirdim. Ilgari ham xalq bilan mulohat, joylarga chiqib o‘rganish asosiy ish uslubimiz edi. Bugun esa har bir qarorning aniq natijasi, har bir loyihaning odamlar hayotiga ta’siri va har bir topshiriqning ijrosi bo‘yicha qanday qat’iy talab qo‘yyapmiz.

Shuningdek, rahbarlik uslubida jamoa bilan ishlashning ahamiyatini yanada oshirdik. Chunki bugungi murakkab va tez o‘zgarayotgan sharoitda birgina rahbarning qarori emas, balki malakali mutaxassislar, tadbirkorlar, faol fuqarolar va jamoatchilikning fikri uyg‘unlashgan holdagina samarali natija beradi. Prezidentimiz doimo ta’kidlab kelayotganidek, rahbarning asosiy vazifasi xalqqa xizmat qilish, odamlarni rozi etish va natija ko‘rsatishdir. Shu nuqtayi nazardan, men ham o‘z faoliyatimda “qancha ish qilindi?” degan savol bilan birga “bu ish o‘zi odamlarga qanday naf berdi?” degan mezonni birinchi o‘ringa qo‘yishga harakat qilaman.

Bugungi kunda asosiy maqsadimiz, berilgan imkoniyatlardan samarali foydalanib, Namangan viloyatini yanada taraqqiy etgan, aholisi farovon va investitsiyaviy salohiyati yuqori hududga aylantirishdir. Bu yo‘lda esa doimiy izlanish, mas’uliyat va xalq ishonchiga munosib bo‘lish biz uchun eng muhim mezon bo‘lib qoladi.

— **Shavkat Shokirjonovich, mazmunli suhbatingiz uchun rahmat!**

2026-yil 5-avgust, 157-son

EL DASTURXONIGA XIZMAT QILADIGAN KATTA TASHABBUS



Munosabat

Xalqimiz azaldan qo‘yni baraka timsoli deb bilgan. Xonadonida to‘y-yo‘q‘zisi ko‘paygan insonning ro‘zg‘ori but, dasturxonida to‘kin bo‘ladi degan tushuncha avloddan avlodga o‘tib kelgan.



A'zamjon USMONOV,
“Namangan qo‘ychilik klasteri”
MCHJ ta’sischisi

Men ham qishloq muhitida ulg‘aygan inson sifatida bu sohaning qadrini, mashaqqati va barakasini yaxshi bilaman. Shu bois, an‘anaviy qo‘ychilikni zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirish, uni katta ishlab chiqarish tizimiga aylantirishni maqsad qildik.

2026-yili To‘raqo‘rg‘on tumani Kumidon qishlog‘idagi 10 gektar yerda ish boshladik. Bugun 5 gektar maydonda qurilish va jihozlash ishlari yakunlanib, 15 ming bosh qo‘y zamonaviy talablarga asosida parvarishlanmoqda. Klasterda 100 ga yaqin yurtdoshimiz mehnat qilmoqda.

Bugun mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, aholiga asosiy turdagi mahsulotlarni uzluksiz yetkazib berish va agrar sohani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chorvachilik tarmog'ini qo'llab-quvvatlash borasida yaratilgan imkoniyatlardan samarali foydalangan holda "Namangan qo'ychilik klasteri" loyihasini amalga oshiryapmiz.

Ushbu tashabbus Prezidentimizning 2020-yil 29-yanvardagi "Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida belgilangan vazifalar asosida yo'lga qo'yildi. 2026-yili To'raqo'rg'on tumani Kumidon qishlog'ida 10 gektar yerda ish boshladik. Bugun 5 gektar maydonda qurilish va jihozlash ishlari yakunlanib, 15 ming bosh qo'y zamonaviy talablarga asosida parvarishlanmoqda. Klasterda 100 ga yaqin yurtdoshimiz mehnat qilmoqda.

Biz uchun asosiy maqsad chorva sonini emas, mahsuldorlik va sifatini oshirishdir. Shuning uchun Qozog'iston, Tojikiston va Qirg'iz Respublikasidan yuqori mahsuldor "Arashan",



Namangan O‘zbekistonning gidroenergetika imkoniyatlari yuqori viloyatlaridan biri. Farg‘ona vodiysi shimolidagi ushbu hudud tez oquvchi daryo va yirik kanallarga ega. Norin daryosi, Kosonsoy, Chodaksoy, Katta Farg‘ona kanali hamda boshqa irrigatsiya tarmoqlari gidroenergetikaning asosiy manbaidir.

Sirdaryoning eng yirik tarmoqlaridan biri bo‘lgan Norin daryosi esa viloyat gidroenergetikasining strategik tayanch nuqtasi sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, daryo va unga tutash suv tizimlari yurtimizdagi muhim “yashil” energiya markazlaridan biriga aylangan. Buning uchun keyingi yillarda yirik loyihalar amalga oshirildi. Oxirgi o‘n yil viloyatdagi boshqa sohalar qatori “yashil” energetika, xususan, gidroenergetika tarmog‘ida ham katta islohot va natijalar davri bo‘ldi.

Bu qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatining bir qismi bo‘lib, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarini uzluksiz elektr energiyasi bilan ta'minlash, elektr ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, energiya tejamkorligini ta'minlash va ekologik barqarorlikka erishishda muhim ahamiyatga ega. Ayni yo'nalishdagi yirik investitsion loyihalar soni va ko'lami esa ancha katta. Viloyat bo'ylab yangi gidroelektr stansiyalar qurilishi, kichik GESlar tarmog'ini kengaytirish orqali energetik imkoniyatlar izchil oshirilmoqda.

Birinchi milliy GES

Namanganda yirik, o‘rta va kichik GESlar qurish uchun tabiiy imkoniyatlar juda yuqori. Bugungi kunda shu imkoniyatlardan keng foydalanilib, gidroenergetik infratuzilmani rivojlantirish, yangi GESlar qurish bo'yicha keng ko'lamli ishlar qilinmoqda.



Javlonbek MAMATOV,
“O‘zenergoinvestitsiya” Namangan
viloyat hududiy boshqarmasi
bosh mutaxassisi

Viloyatdagi birinchi kichik GESlar kaskadi 2019-yilda ishga tushirilgan. O‘shanda “O‘zbekgidroenergo” AJ tomonidan Katta Farg‘ona kanalida har birining quvvati 6 megavatt dan bo‘lgan ikkita kichik GES qurilib, foydalanishga topshirilgan. Mazkur quvvatlar yiliga 72 million kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqaradi.

2021-2022-yillar davomida umumiy quvvati 1 megavatt bo‘lgan yana 3 ta mikroGES ishga tushirildi. Yangiariq mikroGES Yevropaning grand mablag‘lari hisobiga qurildi. Ayni paytda “O‘zbekgidroenergo” aksiyadorlik jamiyati tomonidan Norin daryosida 6 ta GESdan iborat yirik kaskad qurilmoqda. Ushbu strategik loyiha uchun umumiy qiymati 428 million dollardan ortiq bo‘lib, jami quvvati 228 megavattni tashkil etadi. Loyiha ishga tushgach, yiliga qariyb 1 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Bu esa 430 mingdan ziyod xonadonni elektr energiyasi bilan ta'minlash imkonini beradi. Shu bilan birga, yiliga qariyb 300 million kub metr tabiiy gaz tejallishga erishilib, iqtisodiyot uchun 300 milliard so‘mlik qo‘shimcha samara yaratiladi.



Yangi quvvatlar

Loyiha uchun asosiy maqsad chorva sonini emas, mahsuldorlik va sifatini oshirishdir. Shuning uchun Qozog'iston, Tojikiston va Qirg'iz Respublikasidan yuqori mahsuldor "Arashan",

“YASHIL” ENERGIYA SALOHİYATI: KENG IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR



GESdir. Birinchi bosqichda ishga tushirilgan GES-1ning yillik ishlab chiqarish quvvati 171 million kilovatt-soatni tashkil etadi. Ushbu stansiyada 130 kishi ish bilan ta'minlanadi.

Davlatimiz rahbarining 2026-yil 1-maydagi “Gidroenergetika sohasini yanada rivojlantirish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori sohada yangi

ulushini kengaytirish bo'yicha aniq vazifalar belgilangan.

Joriy yilda Norin daryosida barpo etilayotgan Norin GESlar kaskadi doirasida quvvati 38 megavatt bo'lgan Norin GES-2 hamda Katta Andijon kanalida umumiy quvvati 23 megavatt bo'lgan kichik GESlar kaskadini foydalanishga topshirish ko'zda tutilgan. Natijada viloyatda

texnologiyalardan keng foydalanilmoqda. Xususan, O'zbekiston gidroenergetikasi tarixida birinchi marta gorizontall kapsula shaklidagi gidroagregatlar joriy etildi. Bu uskunalar kichik bosim sharoitida ham yuqori samaradorlik bilan ishlashi va energiya ishlab chiqarish hajmini oshirishi bilan ahamiyatlidir. Mazkur texnologiya milliy gidroenergetika

Bugun tadbirkor bo‘lish oson deyishadi. Aslida, oson ishning o‘zi yo‘q. Ammo keyingi yillarda O‘zbekistonda tadbirkorlik uchun ochilgan keng imkoniyatlar, rag‘bat va imtiyozlar sabab yurtidoshlarimizda biznes qilishga ishtiyoq ham, tashabbus ham ortib boryapti. Mamlakatimizda biznes yuritish sharoiti yanada yaxshilaniib, sohani rivojlantirishga oid islohotlarni izchil davom ettirish va ishbilarmonlarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari kengaytirilmoqda.



Tashrif obyekti

UYCHI PARRANDA eksport qiymati besh oyda 90,8 milliard so‘mdan oshdi



Odiljon RAHMATOV,
“Uychi parranda” MCHJ ta’sischisi

Har biri 100 ming bosh parrandaga mo'ljallangan komplekslarda broylerlar 45-50 kun parvarishlanadi va 120 tonna go'sht tayyor mahsulot sifatida yetkazib beriladi. Shu tariqa ichki bozorda ushbu mahsulotlarga talabni qondirish va import o'rini bosish hamda aholi bandligini ta'minlash bo'yicha muhim ijtimoiy-iqtisodiy natijalarga erishilmoqda.

Shular hisobiga 2025-yilda korxonaning aylanma mablag'i 206,1 milliard so'm, eksport qiymati esa 88,8 milliard so'mni

tashkil etgan bo'lsa, 2026-yil yanvar-may oylarida eksport qiymati 90,8 milliard so'mga yetdi. Ishlab chiqarish quvvati ham yil sayin oshib boryapti. 2025-yilda 25,6 million dona tuxum yetishtirilgan bo'lsa, 2026-yilning besh oyida bu ko'rsatkich 22 million donaga yetdi. Shundan salkam 10 million donasi Tojikiston, Qozog'iston va Afg'onistonga eksport qilindi.

Bu oddiy raqamlar bo'lib tuyulishi mumkin. Ammo bitta korxonaning rivojlanib, ishlab chiqarish quvvatining oshishi — qo'shimcha ish o'rinlari, narx-navo barqarorligi, hudud taraqqiyoti va aholi farovonligini oshirishga hissa degani. Bugun 200 ga yaqin ishchi shu yerda mehnat qilib, ro'zg'or tebrataypti.

Prezidentimiz korxonamiz faoliyati bilan yaqindan tanishish davomida qo'shimcha 121,1 gektarda 40 ta parrandachilik majmuasi tashkil etish bo'yicha ko'rsatma berdi. Jumladan, Kosonsoy tumanida 19,9 gektar, Namangan tumanida 5,5 gektar, Popda 45 gektar, Chustda 3,4 gektar, Chortoqda 5,9 gektar, Yangiqo'rg'on 36,9 gektar hamda Yangi Namangan tumanida 5 gektar maydonda parrandachilik loyihalar amalga oshiriladi. Ular doirasida 120 ming bosh nasli parranda parvarishlanadi, 800 ta yangi ish o'ri ochiladi. Yiliga 18 million dollarlik tuxum va go'sht mahsulotlari eksport qilinadi, 13,5 million tonna parranda go'shti yetishtiriladi.

Shuningdek, 20 million dona tuxum ochirish quvvatiga ega inkubatoriya ham quriladi. Umumiy 40 ta parrandachilik majmuasida 4 million bosh broyler boqish tizimi barpo etiladi. Germaniyalik hamkorlar ishtirokida alohida firma tashkil etilib, 100 ming bosh ona tovuq parvarishlash hamda viodiydagi parrandachilik korxonalarga jo'ja yetkazib berish ham ko'zlangan. Bu orqali yaxlit sanoat zanjiri yo'lga qo'yiladi. Bu orqali nafaqat Namangan, balki butun Farg'ona vodiysi bozorlarida parranda go'shti hamda tuxum narxi barqarorligini ta'minlashga hissa qo'shishni maqsad qilganmiz.





Har qanday davlatning taraqqiyoti, avvalo, inson manfaatlarini qay darajada ta'minlayotgani bilan baholanadi. Iqtisodiy o'sish sur'atlari, yirik investitsiya loyihalari, zamonaviy infratuzilma yoki shaharsozlik ishlari mamlakat rivojining muhim ko'rsatkichlaridir. Biroq ularning barchasi, birinchi navbatda, inson hayoti sifatini yaxshilashga, huquq va manfaatlarini ta'minlashga xizmat qilgandagina haqiqiy ahamiyat kasb etadi.



USHBU MAQOLANI
QORAQALPOQ TILIDA
HAM O'QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER
QILING!



Ijtimoiy himoya

samaradorligini oshirish va qo'shimcha daromad manbalarini yaratishga alohida e'tibor qaratilgan.

To'raqo'rg'on tumanida istiqomat qiluvchi 1-guruh nogironligi bo'lgan Zuhra Qirg'izovanning xonadoni Prezidentimizning ushbu qarori ijrosi doirasida energiya tejamlor uyga aylantirildi. Mazkur qaror asosida xonadonning yashash sharoitlari yaxshilaniib, 5 kVt. quvvatga ega quyosh paneli o'rnatildi.

Ijtimoiy xodim bir kuni xonadonimizga yangi qaror haqidagi xabar bilan kirib keldi va tez kunlarda menga ko'rsatilgan yordam va ko'maklar tufayli hayotim butkul o'zgarib ketdi. Chunki nogironligim borligi sabab, ayniqsa, yomg'irli va noqulay ob-havo sharoitida hovlida harakatlanishga juda qiyinalardim. Uymizda deyarli sharoit yo'q edi. Hozir xonadonimiz ancha qulay va zamonaviy ko'rinishga keldi. Ayniqsa, hamma sharoitga ega sanuzel aynan uy ichida qurib berilgani mendek odam uchun katta qulaylik bo'ldi. Albatta, bizga boshqa yo'nalishlarda ham ko'maklar ko'rsatildi. Bolalar nafaqasi tayinlandi, "Saxovat va ko'mak" jamg'armasi orqali yordam berildi, tibbiy, psixologik va huquqiy xizmatlardan foydalandik. Farzandim sport to'garagiga jalb qilindi. Bularning barchasi oilamiz hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi, — deydi Z. Qirg'izova.

Ijtimoiy himoya sohasida yondashuv tobora kuchaymoqda. Muammo yuzaga kelgandan keyin chora ko'rish bilan cheklanmasdan, uning oldini olishga qaratilgan mexanizmlar izchil takomillashtirilmoqda. "Ijtimoiy reyestr" orqali ehtiyojmand oilalarni manzilli aniqlash, "Yoshlarga hamrohlik" dasturi asosida yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi yashaydigan xonadonlarni energiya tejamlor qilish, hududiy ijtimoiy xizmatlar markazlarini tashkil etish shular jumlasidandir.

Bu borada Davlatobod tumanida faoliyat boshlagan hududiy ijtimoiy xizmatlar markazi tizimidagi yangicha yondashuvning amaliy ifodasi bo'ldi. Endilikda fuqarolar turli idoralar ostonasida ovora bo'lish o'rni o'zlariga zarur ijtimoiy xizmatlarni bir joyning o'zida olish imkoniyatiga ega. Bu esa xizmatlardan foydalanishni yanada qulaylashtirish, vaqt va ortiqcha ovoragarchilikning oldini olish bilan birga aholining davlat xizmatlariga ishonchini mustahkamlayapti.

Ijtimoiy himoya sohasida erishilgan natijalarni faqat raqamlar yoki hisobotlar orqali baholab bo'lmaydi. Albatta, statistik ko'rsatkichlarga asoslangan ishlar ko'lamin aks ettiradi. Biroq ishlohtlarning haqiqiy samarasi insonlar hayotida yuz berayotgan ijobiy o'zgarishlarda namoyon bo'ladi. Oila bag'riga qaytgan bolaning yuzidagi tabassum, munosib ish o'rni o'zlariga ega nogironligi bo'lgan fuqaroning ertangi kunga ishonchi, mustaqil hayot uchun o'z uyiga ega bo'lgan yetim yoshlarning quvonchi, yolg'iz keksaning o'zini e'tibor markazida his etishi ana shu o'zgarishlarning eng ta'sirchan ifodasidir.

Ijtimoiy himoyaning pirovard maqsadi insonni doimiy ko'makka muhtoj holatda saqlab qolish emas, balki unga munosib hayot kechirish, o'z imkoniyatlarini ro'yogga chiqarish va jamiyat hayotida faol ishtirok etishi uchun mustahkam zamin yaratishdan iborat.

Shu ma'noda, O'zbekistonda shakllanayotgan ijtimoiy himoya tizimi inson manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan ishlohtlarning uzviy qismi sifatida tobora takomillasib bormoqda. Bu yo'ldagi har bir tashabbus, yaratilayotgan har bir yangi mexanizm va ko'rsatilayotgan har bir manzilli xizmat bitta ezuq maqsadga — fuqarolarning munosib hayot kechirishini ta'minlashga yo'naltirilgan. Zero, inson o'zini himoyalangan, qadrlangan va davlat e'tiborida ekanini his qilgan jamiyatdagina taraqqiyot barqaror, ishlohtlar esa xalqchil va hayotiy ahamiyat kasb etadi.

XALQNI ESHITADIGAN TIZIM



Ibrohim XODJIYEV,
Ijtimoiy himoya milliy agentligi
Namangan viloyati boshqarmasi
boshlig'i

Jamiyat taraqqiyotining asosiy mezonlari ham aynan shu. Davlatning qudrati uning iqtisodiy salohiyati yoki buniyodkorlik ko'lamiga bog'liq. Balki aholining barcha qatlamlariga teng imkoniyat yaratishi, ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlarni qo'llab-quvvatlab, har bir fuqaro o'zini jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida his qilishi uchun munosib sharoit yaratilganida ko'rinishadi. Zero, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, hayot sifatini oshirishga qaratilgan izchil siyosat barqaror taraqqiyotning muhim omilidir.

Yangi O'zbekistonda aynan shu mezon davlat siyosatining bosh tamoyiliga aylandi. "Inson qadri uchun" degan g'oya boshqaruvning yangi falsafasi sifatida hayotga kirib keldi. Mazkur o'zgarishlarni yaqqol namoyon etayotgan sohalaridan biri, shubhasiz, ijtimoiy himoya tizimidir. Ushbu tizimdagi o'zgarishlar aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish, har bir fuqaroga munosib turmush sharoitini yaratishga qaratilgan bilan ahamiyatli. Bugun sohadagi ishlohtlar faqat yordam ko'lamin kengaytirish bilan cheklanmay, insonning munosib hayot kechirishi uchun mustahkam kafolatlar yaratishga xizmat qilmoqda.

Yaqin-yaqingacha ijtimoiy himoya deganda ko'pchilikning tasavvurida nafaqa tayinlash, moddiy yordam ajratish yoki imtiyoz berish g'aydalanardi. Aslida, ehtiyojmand insonning muammosi ko'pincha bitta yordam bilan hal bo'lmaydi. Uning salomatligi, bandligi, oilaviy muhiti, ruhiy holati, farzandlarining ta'limi — bularning barchasi o'zaro bog'liq masalalar.

Shu bois, Prezidentimizning 2023-yil 1-iyundagi "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni bilan tashkil etilgan Ijtimoiy himoya milliy agentligi butunlay yangi yondashuvni hayotga tatbiq etdi. Ilgari turli vazirlik va idoralarga bo'linib ketgan xizmatlar yagona tizimga birlashtirildi. Natijada inson bir muammo bilan bir necha idora eshigini qoqadigan davr ortda qolmoqda.

Namangan viloyatida mazkur yo'nalishdagi ishlar bu ishlohtlarning amaliy natijasini yaqqol namoyon etmoqda. Bugungi kunda viloyatda nogironligi bo'lgan 85,6 ming shaxs, kam ta'minlangan 54 mingdan ortiq oila, minglab yetim bolalar hamda yolg'iz keksalar ijtimoiy himoya tizimining doimiy e'tiborida. Muhimi, endi ularning har biri statistika emas, balki alohida taqdir sifatida ko'rilmog'da. Buni "keys menajment" tizimi misolida ham ko'rish mumkin. So'nggi uch yil davomida 46 ming 800 dan ortiq fuqaro bo'yicha individual ishlaniib, 500 mingdan ziyod ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatildi. Bu shunchaki yarim million xizmat degani emas. Bu yarim million marotaba inson muammosini tinglash, ehtiyojini aniqlash va yechim topishga urinish deganidir.

Pop tumani "Pop" MFYda yashovchi 1-guruh nogironligi bo'lgan Rahbarjon Fozilov o'zi va oilasiga ko'rsatilgan kompleks ijtimoiy xizmatlar haqida bunday deydi:

"Oilamizga ko'rsatilgan yordamlar biz uchun juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Avval ayrim muammolarimizni qanday hal qilishni bilmay, ancha qiyinalardik. Bugun esa ko'plab masalalarimiz yechim topganidan xursandmiz. Turmush o'trog'im bilan nikohimiz rasman qayd etildi, erkin harakatlanishim uchun elektron yuritmalim nogironlik aravachasi berildi. Oilamiz kambag'allik reyestriga kiritilib, bolalar nafaqasi tayinlandi, farzandlarim maktabgacha ta'lim tashkilotiga imtiyozli joylashtirildi. 1-guruh nogironligim sababli qarovchilik rasmiylashtirilib, onamga qarovchi sifatida mehnat staji belgilandi. Tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishim uchun elektr tarmog'i tortib berilgani men uchun katta imkoniyat bo'ldi. Eng quvonarlisi, adaptiv sport — para stol tennisiga jalb etilib, musobaqalarda sovrinli o'rinni egallab kelmoqdaman.



Bundan tashqari, kommunal xizmatlar bo'yicha kompensatsiyalar, moddiy yordam, tibbiy ko'rik va davolanish xizmatlaridan ham foydalandik. Hozir quyosh paneli o'rnatish uchun zarur hujjatlar rasmiylashtirilmog'da. Men uchun eng muhimi — bizga shunchaki yordam berib qo'yishmadi, balki kelajakka ishonch bilan qarashimiz, o'zimizni tiklashimiz va imkoniyatlarimizdan foydalanishimiz uchun sharoit yaratishdi".

Shuningdek, bolalar manfaatlarini himoya qilish borasidagi yondashuv tubdan o'zgardi. Ilgari muassasa bolaga boshpana bo'lsa, bugun oilaning o'rni hech narsa bosa olmasligi asosiy tamoyilga aylandi. Shu sababli so'nggi yillarda yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum 4 mingdan ortiq bola vasiylik, homiylik, patronat va oilaviy bolalar uyiga joylashtirildi. Eng e'tiborlisi, birgina 2025-yilda 890 bola o'z oilasiga qaytarildi.



So'nggi uch yil davomida
46 ming 800 dan ortiq fuqaro
bo'yicha individual ishlaniib,
500 mingdan ziyod
ijtimoiy xizmat va
yordam ko'rsatildi.



Reabilitatsiya
tizimida sezilarli
o'zgarishlar kuzatilmog'da.
Agar 2023-yilda viloyatda
3 mingdan ortiq protez-ortopediya
moslamasi va reabilitatsiya vositasi
yetkazilgan bo'lsa,
2025-yilga kelib
10 mingdan oshdi.

Davlatning ijtimoiy siyosati insonning kelajagini ham o'ylaydi. Shu bois, uy-joyga muhtoj bo'lgan 66 yetim yosh yangi xonadon bilan ta'minlandi. 139 yigit-qizga oliy ta'limda o'qish uchun imtiyoz berildi. Zotan, haqiqiy ijtimoiy himoya insonni umrbod yordamga qaram qilib qo'yish emas, balki uning mustaqil hayot kechirishi uchun imkoniyat yaratishdir.

Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlohtlar aynan shu maqsadga xizmat qilmoqda. Bugun e'tibor faqat pensiya yoki nafaqaga emas, balki ularning jamiyatdagi faol ishtirokiga qaratilgan. Adaptiv sportning rivojlantirilayotgani, inkluziv ta'lim kengayayotgani, bandlik dasturlari amalga oshirilayotgani buning amaliy ifodasi sanaladi. Birgina 2025-yilda nogironligi bo'lgan 10 ming 649 fuqaroning ish bilan ta'minlanganligi muhim natija bo'ldi. Chunki ish o'rni nafaqat daromad manbai, balki insonning jamiyatdagi o'rni, o'ziga ishonchini tiklaydigan eng muhim omildir.

Reabilitatsiya tizimida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmog'da. Agar 2023-yilda viloyatda 3 mingdan ortiq protez-ortopediya moslamasi va reabilitatsiya vositasi yetkazilgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 10 mingdan oshdi. Bu minglab insonlarning mustaqil yurishi, mehnat qilishi va faol hayot kechirishi uchun yaratilgan imkoniyatdir.

Namangan viloyatida 2026-yilning dastlabki olti oyi ham tizim izchil rivojlanayotganini ko'rsatmoqda. Minglab fuqarolar nogironlik ekspertizasi va reabilitatsiya xizmatlaridan foydalandi. To'rt mingdan ortiq fuqaro

zamonaviy protez va texnik vositalar bilan ta'minlandi. "Teng imkoniyat — inkluziv bandlik" dasturi orqali nogironligi bo'lgan qariyb uch ming kishi ishl bo'ldi.

Bundan tashqari, Prezidentimizning 2026-yil 5-fevraldagi "2026-yilda hududlarni yangicha yondashuvlar asosida rivojlantirish orqali aholi daromadini oshirish, barqaror ish o'rinlarini yaratish hamda kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori minglab insonlarning hayotida tub bulirish yasadi. Namangan viloyatida bu borada aholi daromadlarini oshirish, barqaror ish o'rinlarini yaratish va kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan yangi chora-tadbirlar Ijtimoiy himoya milliy agentligi viloyat boshqarmasi hamda tegishli tashkilotlar hamkorligida bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Qarorda ijtimoiy reyestriga kiritilgan, 1-guruh nogironligi bo'lgan va mehnatga layoqatli a'zosi bo'lmagan oilalarning yashash sharoitlarini yaxshilash, xonadonlarini energiya tejamlor holatga keltirish, jumladan, quyosh panellari o'rnatish orqali energiya

TIBBIYOT CHEGARA BILMAYDI



Salomatlik

"El sog'lig'i — yurt boyligi", deyдилar. Zotan, sog'lom xalqqa to'la quvvat bilan mehnat qilib, mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy-ma'rifiy yuksalishiga izchil hissa qo'sha oladi. Davlatimiz rahbari siyosiy iqtisodlarga e'tibor berib, mazkur masalaga jiddiy e'tibor qaratib kelayotgani bejiz emas.



Jumladan, 2016-yil oktabrda Jahon bankining Xalqaro taraqqiyot uyushmasi bilan hamkorlikdagi "Salomatlik — 3" loyihasi doirasida Namangan viloyatidagi 11 ta tuman

tibbiyot birlashmasining markaziy poliklinikalariga eng zamonaviy tibbiy apparat va jihozlar million dollar yo'naltirildi. Shuningdek, har

ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalariga olish uchun 11 million dollar yo'naltirildi. Shuningdek, har

bu boradagi sa'y-harakatlari samara bermoqda. Mazkur yitgilar orasida Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlarining viloyatdagi filiallariga aylantirilgan o'ndan ziyod shifoxonada Toshkentdagi klinikalardan qolishmaydigan sharoit va imkoniyatlar yaratildi.

Shuningdek, Namangan kardiologiya markazida 2022-yil may oyida Avstriyaning "AME international" kompaniyasi bilan 8,89 million yevrolik memorandum imzolangan bo'lsa, oradan bir yil o'tib, ya'ni 2023-yilda 65 turdagi 350 ta apparat va jihozdan to'liq foydalanishga o'tish imkoniyati tug'ildi. Markazda dastlabki paytlar 18 turdagi kardiologiya amaliyoti bajarilgan edi. Endi yangi apparatlar o'rnatilgach, bu ko'rsatkich 112 turga yetkazildi.

Bu yerdagi mutaxassislar bir necha xorijiy davlatda bo'lib, malaka oshirib qaytdi. Jumladan, markazning rentgenovoskulyar bo'limi mudiri, tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori Akmaljon Jalilovning Chexiyada malaka oshirish chog'ida o'zining bo'limdagi sharoitlarga mavjud holatni taqqoslab ko'rgach, aytgan gaplari, ayniqsa, diqqatga molik. "Praga va Berlindagidek sharoit hamda imkoniyatlar Namanganimizda ham yaratilgan. Hech mubolag'asiz Yevropa bilan tenglashibmiz. Bundan buyon biz ham ular kabi ishlashak bas, biror bemor markazimizdan benajot qaytmaydi", deydi mutaxassis.

Sohadagi o'zgarishlar, o'z navbatida, tibbiyot turizmini rivojlantirishga ham keng yo'l ochmog'da. Endi viloyatimizdan tashqari Andijon Farg'onadan, Toshkent Jizzaxdan, Navoiy va Buxorodan keluvchilarning qadami uzilmayapti. Qo'shni Qirg'iziston, Rossiya Federatsiyasidan davolanishga kelayotganlar ko'payib boryapti.



Avvallari nuqul e'tiroz va shikoyatlarga sababchi bo'ladigan "Tez tibbiy yordam" xizmati tarmog'i keyingi yillarda tubdan isloh qilinib, moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi. Viloyat bo'yicha yagona tizim vujudga keltirildi. 9 yil avval atigi 2 ta reanimobil bor edi. Bugun esa reanimatsion tibbiy apparatlar bilan jihozlangan 18 ta xorijiy avtomashina kecha-kunduz chaqiruvlarga kechikmay yetib bormog'da. Ilgari GPS navigatorlar birota avtomashinada o'rnatilmagan bo'lsa, bugun 237 ta avtomobil ushbu qurilma bilan jihozlangan. Ular Call-markaz orqali manzillarga izchil va to'xtovsiz yo'naltirilmoqda. "Tez tibbiy yordam" xodimlarining qutisida birinchi yordam uchun zarur 60 dan ziyod dori-darmon uzluksiz turadi.

Viloyatimizda birlamchi bo'lgan 80 ta oilaviy poliklinika hamda 98 ta oilaviy shifokorlik punktida 1468 ta tibbiy brigada aholiga xizmat ko'rsatmoqda. Namangan sog'liqni saqlash tarmog'idagi barcha davolash-profilaktika muassasalari DMED tizimiga ulangan. Raqamlashtirishga to'liq o'tilgan.

Bu tibbiy xizmatlar sifati va shaffoligini ta'minlamoqda.

Shu bilan birga, xususiy sektor rivoji o'n yilda yanada tezlashdi. Yildan yilga yangi klinikalar, diagnostika xizmati shoxobchalari ko'paymoqda. Hozir ular soni 500 ta bo'lib, bundan o'n yil avvaligiga nisbatan ikki baravar ortgan ham shundan dalolat berib turibdi.

Tibbiyot sohasidagi ishlohtlarning haqiqiy qiymati, eng avvalo, inson hayoti, sog'lig'i va ertangi kunga ishonchi bilan o'lchanadi. Davlat siyosati markaziga inson qadri qo'yilishi natijasida sog'liqni saqlash tizimi ham yangi bosqichga ko'tarilib, aholi uchun sifati, tekzor va samarali tibbiy xizmatni ta'minlashning mustahkam poydevori yaratildi. Bu yo'ldagi ezuq sa'y-harakatlar xalq farovonligiga xizmat qiladigan eng muhim sarfma — sog'lom avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan.

Asliddin RAHMONOV,
Namangan viloyati sog'liqni
saqlash boshqarmasi boshlig'i
o'rinbosari



TINCHLIK VA FAROVONLIK TIMSOLI

Namanganliklar uchun gul va gulchilik shunchaki kundalik mashg'ulot yoki hovli ko'rk'i emas, hayotning chinakam mazmuni, ota-bobolardan meros qalb ehtiyojidir. Bugungi kunga kelib esa bu go'zal an'ana yurtimiz sarhadlaridan oshib, Namanganni dunyoga tanitadigan "tashrif qog'ozi"ga aylanib ulgurdi.

Nazdimda, gul — tinchlik va farovonlik timsoli. Endilikda u daromad manbai hamda tadbirkorlik sohalaridan biri ham. Gullar haqida o'yalar ekanman, beixtiyor kechmishdagi aksariyat shirin xotiralar yodga tushaveradi.

Universitetni bitirib, tahririyatga muxbir bo'lib yangi ishga kirgan davrim. Aniqrog'i, roppa-rosa qirg'yil avval 8-mart kuni. Hamma joydagi kabi bu dargohda ham jamoadagi erkaklar hamkasb ayol-qizlarni bahor bayrami bilan tabrikldi. Ularga sovg'a sifatida choynak-piyola ulashildi. Bu ko'pchilikka ma'qul keldi. Ammo menga... Hali Toshkent xayollaridan uzoqlashmagan, bayram va tug'ilgan kunlarda gul olishga o'rgangan qiz uchun bu juda erish tuyuldi. Balki shu sabab bo'libmi, Namangan shahridagi yagona gul do'koni, Chorsudagi gul bozori, shahar obodonlashtirish tashkilotidagi issiqxona faoliyati haqida maqola yozish istagi tug'ildi. Erinmay borib, mutasaddilar bilan gaplashib, nihoyat mart oyi oxirlarida "Namangan haqiqati" gazetasining 1-sahifasida "Eng yaxshi sovg'a" sarlavhali tahliliy maqolam chiqdi.

O'sha davrda siyosat, qishloq xo'jaligi va sanoat uchun mo'ljallangan birinchi



Risliqxon MAJNUOVA,
O'zbekiston Respublikasida
xizmat ko'rsatgan jurnalist

tasavvur qilmagan edim. To'g'ri, Namangan o'shanda ham gullar shahri deyilardi. Lekin bu ta'rif yilda bir marotaba bog'da gul bayrami o'tkazish hamda yerga, gulxonalarga gullar ekish bilangina cheklanardi. Gul do'konlari deyarli yo'q, bozordagilari esa qimmat edi. Qolaversa, tug'ilgan kun, to'y va boshqa marosimlarga guldasta ko'tarib borish odat emasdi.

Oradan yillar o'tdi. Namanganda har doimgidek uzluksiz gullar festivali o'tkazib kelindi. Bu an'ana faqat pandemiya avjga chiqqan 2020-yildagina tanaffus qildi, xolos.

Bundan 12 yillar avval. Shahardagi atirgullar olib tashlanib, o'rniqa bir qarashda gultojixo'rozga, bir qarashda majido'tiga o'xshash, odam bo'yi keladigan qizil tusli o'simliklar, keyin esa kimyoga yo'g'rilgan yashil gazonlar ekish urfga kirdi. Binolar oldiga petuniya kabi gibrid, issiqqa chidamsiz gul ko'chatlarini ekish boshlandi. Ammo dimog'lar musaffo atirgul iforini tezda sog'indi. Odamlar atirgullarning betakror rangi va go'zalligini qo'msay boshladi. Kuzatishlar xulosasi asnosida "Namangan haqiqati"ning 2014-yil sentabr oyi sonlaridan birida "Atirgullarga qaytsak-chi..." sarlavhali maqolam chop etildi. U o'quvchilar tomonidan iliq kutib olindi.

Bahorda joylarda yana atirgullar ekish boshlandi. Jumladan, o'zimiz ham o'shanda hovlimizga yuz tupga yaqin atirgul ko'chati o'tqazdik. Bu an'ana hamon davom etyapti. Ko'chalarda, yo'l chetlarida gullar yotgan xilma-xil atirgullarni ko'rib, ich-ichimdan suyunaman. Yig'ri barpo etilayotgan gulzorlardagi atirgullarning husn-u tarovatidan ko'zlarim yashnab, dilim yayrab ketadi. Masalan, Namangan shahri Kurashxona dahasidagi ko'chalardan birining ikki tomoniga faqat atirgullar ekilgani tahsinga sazovor. Har kuni shu ko'chadan o'tar ekanman, yaqin



Bahorda joylarda yana atirgullar ekish boshlandi. Jumladan, o'zimiz ham o'shanda hovlimizga yuz tupga yaqin atirgul ko'chati o'tqazdik. Bu an'ana hamon davom etyapti. Ko'chalarda, yo'l chetlarida gullab yotgan xilma-xil atirgullarni ko'rib, ich-ichimdan suyunaman. Yangi barpo etilayotgan gulzorlardagi atirgullarning husn-u tarovatidan ko'zlarim yashnab, dilim yayrab ketadi.

dugonamning: "Ana sening atirgullaring", deya takrorlashi shunchaki hazil bo'lsa-da, ko'nglimni osmon qadar ko'tarib yuboradi.

So'nggi o'n yilda mamlakatimiz ulkan islohotlarni boshidan kechirmoqda. Jumladan, turizm sohasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Eng quvonarlisi, turizm taraqqiyotida gulchilik ham o'ziga xos soha sifatida quloch yozdi. Dunyo taraqqiyot sari keskin odimlayotgan Namanganni gullari bilan tanimoqda.

Bugungi kunda viloyatda gullar festivali har yili butkul boshqacha ruhda o'tkazilayotganini, obodonlashtirishga, gulchilik va go'zallikka e'tibor yuqori darajaga ko'tarilganini alohida ta'kidlash kerak. Ayniqsa, Namanganing bu borada Ginnesning rekordlar kitobiga muhrlanishi katta tarixiy voqea, xushxabar bo'ldi. Bu men kabi minglab gul shaydolariga hamisha faxr bag'ishlaydi.



sahifada sovg'aga tabiiy gul taqdim etish masalasi ko'tarilishi kutilmagan chiqish edi. Maqolani boshiga ruxsat berib qo'yib, keyin ozroq xavotirlangan rahmati bosh muharririmiz qiyofasi haligacha ko'z oldimda.

Ertasi kuni viloyatdagi barcha ommaviy axborot vositalari, targ'ibot-tashviqot xodimlari siyosiy maorif uyiga viloyat mas'ullari bilan uchrashuvga chaqirildi.

Zal odamga to'la edi. O'sha davrdagi viloyat sarkotibi juda notiq, so'zga usta inson ekan. Uning adabiyotdan xabardorligi, hatto nutqi orasida Umar Xayyom ruboiylaridan o'qigani hanuz esimda. Gapirayotib, so'zini birdaniga "Namangan haqiqati"ning kechagi sonida o'qigani — "Eng yaxshi sovg'a" maqolasiga burdi. Dastlab uncha tushuna olmadim. Keyin zalga qarab: "Majnunova kim?" deganda, orqarorda o'tirgan bosh muharririmizning "Turing, turing...", deganidan so'ng sal o'zimga keldim. Uzoqdan menga nazari tushgan rahbar maqola uchun rahmat aytdi, so'ng joyimga o'tirdim. Keyin u bayram, sovg'a va gullar haqida yana ancha gapirdi...

O'sha daqiqualarda mendan xursand odam yo'q edi. Bir bahona sabab yozgan maqolam shunchalik e'tiborga tushishini



Bir o'lkaki...

O'zbekistonda turizm iqtisodiyotning asosiy drayverlaridan biriga aylantirilmoqda. Xususan, Namangan viloyatining qiyofasi va ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishda ham sayyohlik nuqtalarining o'rni va ahamiyati oshib bormoqda.

ZAMONAVIY TURIZM: "ARASHAN RESORT"dan "SOHILBO'YI" gacha



Ilhomjon RAHMATOV,
Namangan viloyati hokimining
matbuot kotibi — axborot siyosati
masalalari bo'yicha maslahatchisi

So'nggi yillarda hududning yangi turizm xaritasi shakllandi. Bunda viloyatda infratuzilmani modernizatsiya qilish, investitsiya muhitini yaxshilash hamda xizmat ko'rsatish sifatini oshirish borasidagi izchil chora-tadbirlar hal qiluvchi omilga aylandi. Ilgari asosan sanoat va qishloq xo'jaligi markazi sifatida tanilgan ushbu hudud bugun madaniy-tarixiy, rekreatsion, tibbiyot, eko va agroturizmning yirik hamda ko'p tarmoqli markazlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Namangan viloyati tarkibidagi 14 ta shahar-tumanning 6 tasi tog'oldi hududda joylashgan.

maskanlari, rekreatsion va sog'lomlashtirish hududlari tashkil etiladi. Bu yerda tematik parklar, tog' chang'isi komplekslari, ziplayn, restoran va kafelar, ochiq osmon ostidagi kinoteatr, ekobozor, bolalar maydonchalari, sport maydonlari hamda termal suv basseynlarini barpo etish rejalashtirilgan. E'tiborli jihati shundaki, mazkur loyiha Yaponiyaning nufuzli "NGEA — Nippon Global Education and Assessment" kompaniyasi bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda. Bu esa majmuaning xalqaro standartlar asosida barpo etilishiga xizmat qiladi.

Bugun Namangan viloyatida tadbirkorlik, kichik sanoat taraqqiyoti barobarida ichki va tashqi turizmni yetakchi tarmoqqa aylantirish harakati izchil ketyapti. Jumladan, 2020-yilda viloyatga 4600 xorijlik sayyoh kelgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 510 mingga yetdi. O'z navbatida, turizm xizmati eksporti qiymati 1,82 million dollardan 190,8 million dollarga oshdi yoki 105 barobar o'sdi. 2024-yilda Farg'ona vodiysida ilk marotaba 2 ta qishloq — Nanay hamda Chodakka "Turizm qishloqi" maqomi berildi. Viloyatda turistlarning o'rtaacha qolish muddati 1,5 kundan 3-5 kunga uzaydi.

Jori yilga kelib bu raqamlar yanada ortganini kuzatish mumkin. Xo'sh, buning bosh omili nimada degan savolga, eng avvalo, ekoturizm deya javob bersak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Birgina misol: Namangan brendiga aylangan gullar festivali.

Prezidentimiz ko'p ta'kidlaganidek, "Tinchlik hukm surgan, qonun ustuvor bo'lgan, fuqarolarning xavfsizligi ta'minlangan joyga



Yilning to'rt fasli ham go'zal bo'ladigan bu joylarda ekoturizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyat bor. Keyingi yillarda viloyatda ushbu salohiyatdan unumli foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Masalan, Pop tumanida turizmni rivojlantirish uchun keng imkoniyat mavjud. Hozir ana shu tabiiy boylik — betakror va maftunkor tabiatdan unumli foydalangan holda xorijlik sayyohlar oqimini oshirish chorasi ko'rilmogda. Xususan, Arashan ko'llar tizimi atrofida barpo etilayotgan "Arashan Resort" majmuasi ana shunday istiqbolli loyihalardan. Jami qiymati 150 million dollar bo'lgan loyiha 600 gektar maydonda tashkil qilinadi. Zamonaviy turizm infratuzilmasiga ega yirik dam olish va sayohat markaziga aylanadi. Bu yil Navro'z umumxalq bayrami arafasida tamal toshi qo'yilgan loyiha to'liq ishga tushirilgandan so'ng kuniga 2500 sayyohni qabul qilish, yiliga 912 ming turistga xizmat ko'rsatish, 2000 dan ortiq yangi ish o'rni ochish imkoniyati paydo bo'ladi. Bundan tashqari, loyiha doirasida ekologik turizm zonlari, ekstremal va tog' turizmi infratuzilmalari, gastronomik turizm markazlari, sayohat va madaniy dam olish

investitsiya ham keladi, bu yerda turizm ham rivojlanadi". Namangan va namanganliklar 65-xalqaro gullar festivali doirasida bu so'zlarning naqadar hayotiy ekaniga yana bir karra guvoh bo'ldi. Mavzuga kirishishdan avval Namangan shahrida bundan 65 yil muqaddam boshlangan oddiy gullar ko'rgazmasi yangi O'zbekiston sharoitida xalqaro miqyosda e'tirof etilayotgan katta madaniy hodisa va milliy brend ekanini alohida ta'kidlash kerak. Prezidentimiz tashabbusi bilan 2018-yildan gullar ko'rgazmasi xalqaro festival darajasiga ko'tarildi.

Yana ayrim taqqos va raqamlarga e'tiboringizni tortmoqchiman: festival muddati 2018-yildagi 3 kundan 2025-yilda 40 kunga uzaytirildi. Natijada xorijlik sayyohlar soni 25 mingdan 800 mingga, mamlakatimizning turli hududidan kelganlar soni esa 6,4 millionga yetdi. Bu yil esa aynan festivalda ishtirok etish uchun Namanganga kelgan chet ellik sayyohlar 1 million 100 mingdan, mahalliy mehmonlar esa 7,5 milliondan oshdi. Festival kunlarida ko'rsatilgan xizmatlarning umumiy qiymati 8 trillion so'mdan ziyod bo'ldi. Birgina Namangan shahri o'zida 45 ta mahallaning o'sish nuqtasi gulchilikka ixtisoslashtirilib, 21

ming kishining bandligi ta'minlandi. Asosiysi, odamlar qo'shimcha 300 milliard so'm daromadga ega bo'ldi. Umumiy ovqatlanish, transport, mehmonxona, hunarmandchilik va xizmat ko'rsatish sohalarida 100 mingga yaqin yurtdoshimiz mavsumiy ish bilan ta'minlandi. Demak, ushbu festival nafaqat turizm rivoji, balki iqtisodiy taraqqiyot va aholi farovonligi uchun ham muhim manbaga aylandi.

Bugun sayyohlik ommalashib borayotgan bir vaqtda turizm obyektlarini yanada kengaytirish zarurati ham bor. Shu ma'noda, viloyatda rejalashtirilayotgan yangi loyihalarning aksariyati turizm bilan bog'lanayotgani ham bejiz emas.

Namangandan o'tgan Norin daryosi hamda shu yerdan boshlanadigan Sirdaryo qirg'oqlarida "Sohilbo'yi" turizmi shakllanmoqda. To'raqo'rg'on tumanida yaqinda ish boshlagan "Axsikent sohili" MCHJ tomonidan 7 gektar maydonda loyiha qiymati 20 milliard so'm bo'lgan, bir kunda 2000 kishini qabul qila oladigan gastronomik hudud tashkil etildi. Sirdaryo bo'yidagi ushbu maskan har kuni dam oluvchilar bilan gavjum. Ayniqsa, daryoda sayr qilish uchun ajratilgan qayiqalar xizmatidan foydalanuvchilar ko'p. Shunday manzillarni Norin, Uychi, Namangan tumanlarida ham barpo etish bo'yicha loyihalar ishlab chiqildi.

Yana bir yo'nalish — Axsikent arxeologik yodgorlik majmuasini "ochiq osmon ostidagi muzey"ga aylantirish konsepsiyasi ishlab chiqilib, hozir qurilish ishlari boshlangan. Buning evaziga majmuaga keladigan sayyohlar soni 10 barobar ortib, yiliga 50 mingdan 500 mingga yetadi hamda 200 ta yangi ish o'rni ochish imkonini paydo bo'ladi. Jadal rivojlanish dasturi doirasida bugun yangicha qiyofa kash etib borayotgan Chortoq tumanida dunyoga mashhur ma'danli suv imkoniyatidan oqilona foydalanish chorasi ko'rilmogda. Sanatoriylar maskani sifatida butun Osiyo, qolaversa, MDH davlatlarida tanilgan Chortoqda ayni vaqtda yana 4 ta yirik 840 o'rinli sihatgoh faoliyatini yo'lg'a qo'yilmogda.

Albatta, viloyatga keladigan mehmonlarga munosib sharoit yaratib berish ham zarur. 2025-yilda 2 ta 150 o'rinli mehmonxona, 3 ta 60 o'rinli xostel, 10 ta 100 o'rinli oilaviy mehmon uyi tashkil etilib, ulardagi jami o'rinlar soni 11 mingga yetkazildi. Viloyat markazi, ayniqsa, Yangi Namangan shaharchasida zamonaviy mehmonxonalar qurish ishlari izchil davom etmoqda. Kuni kecha Yangi Namangan shaharchasida umumiy qiymati 114 milliard so'mlik 310 o'rinli zamonaviy 4 yulduzli yana bir mehmonxona qurilishiga start berildi. Xalqaro me'moriy yechimlar asosida barpo etiladigan mazkur mehmonxona zamonaviy xonalar, restoran, konferensiya zallari, fitness markazi, basseyn hamda boshqa servislarni qamrab oladi. Loyiha mahalliy va xorijlik mehmonlar uchun yuqori darajadagi qulayliklarni ta'minlash bilan birga turizm infratuzilmasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Namanganda imkoniyatlardan samarali foydalanish asosida amaliy oshirilayotgan bunday loyihalarga yana o'nlab misollar keltirish mumkin. Ularning barchasi viloyatning turizm salohiyatini to'liq ishga solish, sohada yangi iqtisodiy o'sish nuqtalarini shakllantirish va xizmatlar sifatini oshirishda muhim o'rin tutmoqda. Bu borada yaqin 2-3 yilda turizm xizmatlari eksportini 300 million dollarga yetkazish maqsad qilingan. Mazkur natijaga erishish nafaqat turizm tarmog'ining, balki viloyat iqtisodiyotining umumiy o'sishi, yangi ish o'rnlari ochilishi, aholi bandligi ta'minlanishi va daromadi oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Bugun boshlangan ana shunday islohotlar va amaliy loyihalar tufayli yaqin istiqbolda Namangan nafaqat mamlakat, balki mintaqaning ham eng jozibador sayyohlik maskanlaridan biriga aylanishi shubhasiz.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetaları tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Qabulxona: (71) 233-56-33
E‘lonlar bo‘limi: (71) 233-70-98

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriq qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas‘ul.

E-mail: info@yuz.uz
Be6-cairi: www.yuz.uz; (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-846.
29345 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Munajat Mo‘minova
Musahhih: Akbar Qarshiyev
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy